5.2.17. Tashqi savdo shartnomasi bo'yicha o'zining xorijiy sherigi yoki xorijiy sherikning benefisiar egasi sanksiyaga tushganlar ro'yxati bilan bog'liq emasligi, hamda tanzaksiyalar va ta'minot kanallari sanktsiyalar obyekti hisoblangan sanksiyalangan mamlakatlar va geografik mintaqalar bilan bog'liq emasligiga (shu jumladan moliyaviy jihatdan) javobgar bo'lish;

5.2.18. Mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar, operatsiyalar (shu jumladan, transport ekspeditsiya, tashish va charter (yetkazib berish haqi) shartnomalari bo'yicha operatsiyalar, ekspeditor, tashuvchi va fraxt xizmatlarini ko'rsatuvchi tomonidan tranzit, tashish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilganda) bevosita yoki bilvosita sanksiya qilingan mamlakatlar va ro'yxatlarga tegishli emasligi uchun javobgar bo'lish (shu jumladan, moliyaviy javobgarlik);

5.2.19. Tomonlar ushbu Universal shartnomada nazarda tutilgan huquq va majburiyatlardan tashqari, amaldagi qonunchilik va Tranzaksiyalarda nazarda tutilgan huquqlarga ega va majburiyatlarga ega.

5.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.3.1. Hamkorlarni Universal shartnomada belgilangan vazifalarni bajarishga jalb qilish;

5.3.2. Shartnomalarni tuzishda, shuningdek, Mijozning Bank bilan aloqasi bo'lgan boshqa hollarda, kuzatuv, fotosurat, audio va videoyozuv, shu jumladan, mijozni (uning vakillarini) bunday qayd etish to'g'risida xabardor qilgan holda va xabardor qilmasdan telefon suhbatlarini yozib olish. Mijoz Bankning bunday yozuvlarni Mijoz bilan munosabatlar to'xtatilgan kundan boshlab 5 (besh) yil davomida saqlashga, shuningdek ulardan Universal shartnoma va/yoki Shartnomalar bilan bog'liq har qanday tekshiruvlarni o'tkazishda foydalanishga haqli ekanligiga rozilik beradi;

5.3.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, ATB "Kapitalbank" ning ichki hujjatlari, Shartnomada belgilangan hisob-kitoblar tartibi buzilganligi, shuningdek Mijoz tomonidan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o'z vaqtida taqdim etish tartibi buzilganligi holatlari aniqlanganda operatsiya o'tkazilishini to'xtatish (qonun hujjatlariga zid bo'lgan to'lovni amalga oshirishni rad etish) va/yoki uning amalga oshirilishini to'xtatib turish bo'yicha choralar ko'rish;

5.3.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va ATB "Kapitalbank" ning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda mijozning hisobraqamga kelib tushgan pul mablag'lari va /yoki Ro'yxatga kiritilgan shaxslarning pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkini ularni oldindan xabardor qilmagan holda muzlatib qo'yish, pul mablag'larini o'tkazish operatsiyalari bundan mustasno. Operatsiya to'xtatib turilgan va/yoki pul mablag'lari va boshqa mol-mulk muzlatilgan taqdirda Mijoz farmoyishlari asosida Pul mablag'larini hisobraqamlardan hisobdan chiqarish amalga oshirilmaydi;

5.3.5. Shu bilan birga, Universal Shartnoma va/yoki Shartnomalar bekor qilingan taqdirda, Mijoz joriy hisobraqamdagagi pul mablag'i qoldig'ini MBXTdan foydalanmasdan to'lov topshiriqnomasi bo'yicha boshqa bankda ochilgan hisobraqamlariga o'tkazishi shart;

5.3.6. Bank Mijozning tovar belgilari/xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomi va boshqa belgilaridan Mijozning Bank mijozи ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni global Internet tarmog'ida va boshqa qonuniy yo'llar bilan, shu jumladan: taqdimotlarda, bukletlar va varaqlarda, broshyuralarda, tarqatish/joylashtirish orqali foydalanish huquqiga ega;

5.3.7. Mijoz va/yoki Benefitsiarni to'g'ri tekshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni mijozdan so'rash hamda so'rangan ma'lumotlar va hujjatlar taqdim etilmagan yoki to'liq

taqdim etilmagan taqdirda, ushbu Universal shartnomani va/yoki Shartnomani/shartnomalarni tuzishni rad etish;

5.3.8. Mijoz va/yoki Benefitsiar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yangilash maqsadida yiliga kamida bir marta, ilgari olingen ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘g‘rilingiga shubha tug‘ilganda esa – bunday shubhalar paydo bo‘lgan kundan keyingi 3 (uch) ish kuni ichida hujjatlar va ma’lumotlarni talab qilish. Shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni va terrorizmni moliyalashtirishni legallashtirishga va Mijoz to‘g‘risida ilgari olingen ma’lumotlarning ishonchliligi yoki yetarligiga shubha uyg‘onganda, Mijoz 3 (uch) ish kuni ichida so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etishga majburdir. Tegishli tekshiruv o‘tkazish imkoniyati mavjud bo‘lmagan taqdirda, Bank mijoz bilan ish munosabatlariga kirishishni/yoki operatsiyalarini amalga oshirishni rad etishga haqlidir;

5.3.9. Identifikatsiyalashni amalga oshirish va ma’lumotlarni yangilashda, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish to‘g‘risida qonunchilikka riosa qilish maqsadida Mijozdan hujjatlar va ma’lumotlarni taqdim qilishni va qabul qilishni jumladan Pul mablag‘lari bilan operatsiyalar, Bank bilan ishbilarmonlik munosabatlarini o‘rnatish maqsadlari va mo‘ljallangan mohiyati, Mijozning pul mablag‘lari ning va / yoki boshqa mulkinining kelib chiqish manbalari, tegishli hujjatlar faoliyat yuritadigan Mijozning vakolatlari va shaxslari to‘g‘risidagi hujjatlarni va ma’lumotlarni talab qilish;

5.3.10. Universal shartnoma va/yoki Shartnoma/Shartnomalarni tuzishdan maqsad O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro huquq me‘yorlariga muvofiq jinoyatdan olingen daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirish maqsadida Operatsiyalarini amalga oshirish ekanligiga shubha uyg‘onsa, uni tuzishni rad etish;

5.3.11. Quyidagi holatlarda Mijoz bilan Universal shartnoma va/yoki Shartnoma/Shartnomalar tuzishni bir tomonlama rad etish yoki ularni bekor qilish:

- mijoz amaldagi qonunchilikka muvofiq Mijozni identifikatsiya qilish va tegishli tarzda tekshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan bo‘lsa;
- ataylab soxta hujjatlar taqdim etilgan bo‘lsa;
- davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganda (yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun);
- Shuningdek, amaldagi qonun hujjatlarida, ushbu Universal shartnoma va/yoki Shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa sabablarga ko‘ra.

5.3.12. Bank tomonidan tuzilgan Universal shartnomani va/yoki Shartnomalarni bajarish bir tomonlama rad etilgan taqdirda, Tomonlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-moddasi to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan oqibatlar qo‘llaniladi. Bunda, Bankning ushbu Universal shartnoma va/yoki Shartnoma/Shartnomalar ijrosini bir tomonlama rad etishi Mijozni Universal shartnoma va/yoki Shartnoma/Shartnomalar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi va/yoki lozim darajada bajarmaganligi munosabati bilan Bank tomonidan ko‘rilgan zararlarni qoplashdan ozod etmaydi;

5.3.13. Bank tomonidan so‘ralgan operatsiya amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa (mijozning bank hisobraqamiga kelib tushgan pul mablag‘larini o‘tkazish bo‘yicha operatsiya bundan mustasno) yoki agar Bank xodimlarida Operatsiya jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotganligi haqida shubha uyg‘onsa shu jumladan, mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlanganda hisob-kitob hujjatlarini qabul qilishni va/yoki rasmiylashtirishni rad etish;

5.3.14. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan Mijozning pul mablag‘larini aksepsiz tarzda Mijoz buyrug‘isiz uning bank hisob raqamidan yechib olish, shu jumladan Mijoz bilan bank o‘rtasida tuzilgan akkreditiv ochish yoki kafolat berish to‘g‘risidagi

shartnomalardan kelib chiqadigan qarzdorlikni so'ndirish, hamda xizmatlar ko'rsatish, byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar, amaldagi qonun hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida, ushbu Universal shartnomada, Shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda yoki Mijozning Bank yoki Uchinchi shaxslar bilan tuzilgan kelishuvlarida nazarda tutilgan har qanday komissiyalarini, xarajatlarni (ular paydo bo'lgan taqdirda) to'lash uchun Mijoz Bankka o'zining qaytarib olinmaydigan va inkor etilmaydigan huquqini beradi;

5.3.15. Operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bankka zarur bo'lgan Mijoz tomonidan to'liq bo'lmagan hujjatlar to'plamini (rekzivitlar) ko'rsatishda xatoliklar aniqlanganda, hamda Operatsiyalarning amaldagi Qonunchilik va ushbu Universal shartnomaning va / yoki regishli Shartnoma shartlariga qarshi bo'lgan hollarda xatolik bilan amalga oshirilgan operatsiyalarni bekor qilish hamda Mijozning hisob kitob hujjatlarini ijrosini amalga oshirmsaslik;

5.3.16. Bank hisobraqamlari operatsiyalari bo'yicha xato yozuvlarga, shu jumladan, mijoz bilan qo'shimcha kelishmasdan hisobraqamlardan pul mablag'larini yechib olish talab qilinadigan yozuvlarga tuzatishlar kiritish, shuningdek, Bank ma'lumotlar bazasi ishida nosozlik yuz bergan taqdirda mijoz tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarni tiklash uchun barcha zarur harakatlarni amalga oshirish.

5.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

5.4.1. Mijoz shartlariga qo'shilgan Universal shartnoma asosida MBXT va/yoki Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatishning boshqa kanali va bank binolaridan foydalangan holda tegishli arizani yuborish orqali keyingi hisobraqamlarni ochish va/yoki boshqa Bank mahsulotlari uchun ariza qoldirish;

5.4.2. Bank hisobraqami va/yoki Kartalar bo'yicha amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha ko'chirmalarni so'rov orqali olish, shuningdek, amaldagi qonunchilikka, Karta tegishli bo'lgan To'lov tizimining qoidalariga muvofiq, agar Hisobraqam bo'yicha Operatsiya Karta yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, Bank hisobraqami Operatsiyalari bo'yicha da'volarni yozma ravishda taqdim etish;

5.4.3. Ushbu Universal shartnoma va/yoki Shartnoma (lar) doirasida Bankka bajarilgan topshiriqlar to'g'risida dolzarb va ishonchli axborot olish;

5.4.4. Bank oldidagi barcha mavjud qarzdorlikni so'ndirgan holda quyidagilardan voz kechish:

- Bank xizmatlarini ko'rsatish va ushbu Universal shartnomani bekor qilish, shu jumladan Bank tomonidan Bank Tariflariga kiritilgan o'zgartirishlar/qo'shimchalaridan rozi bo'lmagan taqdirda, Bankka xizmatlaridan foydalanishni rad etish to'g'risida tegishli yozma ariza taqdim etish orqali bekor qilish, shuningdek, barcha pul mablag'larini talab qilish va barcha bank hisoblarini yopish;

- Shartnoma/Shartnomalarda belgilangan shartlar bo'yicha Shartnoma/Shartnomalar.

5.4.5. Ushbu Shartnoma va unga ilovalar bo'yicha o'z huquqlarini faqat Bankning yozma roziligi bilan uchinchi shaxslarga o'tkazish.

5.5. Universal shartnomada nazarda tutilgan huquq va majburiyatlardan tashqari, Bank va Mijoz Universal shartnomada (ilovalarda) ko'rsatilgan tegishli Umumi shartlar va shartlarda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega.

6. UNIVERSAL SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

6.1. Mijozning o'zgartirilgan va/yoki qo'shimchalar kiritilgan Universal shartnomaga roziligining qo'shimcha tasdig'i - Universal shartnomaga/Bank tariflariga kiritilgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgandan so'ng Mijozning operatsiyalarni bajarishi/Ariza taqdim etishi hisoblanadi.

6.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalari va/yoki To'lov tizimlari qoidalari o'zgarishi va/yoki Bank tomonidan yangi mahsulotlar/xizmatlar taqdim etilishi va/yoki Bankning xohishiga ko'ra bank mahsulotlarini taqdim etish texnologiyasi o'zgarishi munosabati bilan Tomonlar, Bankning Umumiy shartlari va Bank Tariflariga muvofiq Universal shartnomaga, shu jumladan Universal shartnomaga ilovalariga, alohida Shartnomalarga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega ekanligiga kelishib oldilar.

6.3. Mijoz ushbu bilan Bankka ushbu Universal shartnomaga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqini beradi (o'zgartirishlar mazkur Universal shartnomaning 6.3.3. kichik bandida ko'rsatilgan tartibda kiritiladigan Bank tariflari bundan mustasno), jumladan Bankning amaldagi qonunchiligi va/yoki To'lov tizimlari qoidalari o'zgarishi va/yoki ATB "Kapitalbank" tomonidan yangi mahsulotlar/xizmatlar taqdim etilishi va/yoki bank xizmatlarini ko'rsatish texnologiyasi o'zgarishi munosabati bilan va/yoki Bankning mustaqil xohishiga ko'ra o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritilishi kutilayotgan sanadan kamida 10 (o'n) kalender kun oldin, ushbu Universal shartnomaning 6.9-bandida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno, tegishli e'ltonni Bankning saytiga joylashtirish va/yoki Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan pochta va/yoki yuridik manzil bo'yicha mijozga yozma bildirishnoma yuborish va/yoki elektron aloqa va/yoki kuryerlik xizmati orqali va/yoki Bankning tanlagen har qanday boshqa usullari bilan xabardor qilishi lozim. O'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar, agar bildirishnomada (e'londa) o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kuchga kirishi bo'yicha kechiktirilgan sana ko'rsatilmagan bo'lsa, xabardor qilingan sanadan e'tiboran kuchga kiradi.

6.3.1. Universal shartnomada, shuningdek unga ilovalar va ularning yangi tahririda kiritilgan har qanday o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar Mijoz uchun Bank tomonidan xabar qilingan kundan boshlab shartsiz ravishda kuchga kiradi.

6.3.2. Agar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan va belgilangan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgan sanaga qadar mijozdan kiritilgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalarga rozi bo'limganligi to'g'risida yozma da'vo (ariza) kelib tushmagan bo'lsa, bu holat (Mijozning harakatsizligi) Mijozning kiritilgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalarga so'zsiz va to'liq roziligin (qabul qilinganligi) bildiradi, Universal shartnomada va/yoki Tranzaksiyalar esa Tomonlar kelishuv bilan o'zgartirilgan deb hisoblanadi. Bunda Universal shartnomaga va/yoki Tranzaksiyalarga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi shartnomaning yozma shakli O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq tarzda bajarilgan deb hisoblanadi.

6.3.3. Tomonlar Bankning tariflariga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga faqat tomonlarning roziligi bilan tegishli Qo'shimcha shartnomani imzolash yoki Masofadan bank xizmatlari ko'rsatish kanallari orqali qabul qilish yo'li bilan ega. Agar Universal shartnomada shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirkunga qadar Bank mijozdan Universal shartnomani bekor qilish to'g'risidagi yozma arizani olmagan bo'lsa, bu holat mijozning kiritilgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalarga so'zsiz va to'liq rozi ekanligi hisoblanadi. Bunda Universal shartnomani o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Tranzaksiyaning yozma shakli O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq amalga oshirilgan hisoblanadi.

6.4. Ushbu Universal shartnomada va/yoki Shartnomalar Mijoz unga bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq barcha to'lovlarni amalga oshirgandan keyin istalgan vaqtida belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

6.5. Universal shartnomaning bekor qilinishi Mijozning Bankda ochilgan barcha hisobraqamlarini, shu jumladan Korporativ kartaga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan bank hisoblarini yopish uchun asos bo'ladi, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6.6. Universal shartnama va/yoki shartnomalarni to'xtatish yoki bekor qilish Hisobraqamni yopish uchun asos hisoblanadi. Mijozning birlamchi/ikkilamchi hisobraqamlari unga tegishli boshqa hisoblar (tranzit, sxema, maxsus, maqsadli va h.k.) yopilgandan keyin yopiladi.

6.7. Universal shartnama mijozning oxirgi hisobraqamini yopish vaqtida tugatiladi. Mijozning oxirgi hisobraqamini yopish vaqtida uning Universal Shartnama bo'yicha Bank oldidagi so'ndirilmagan qarzdorligi bo'lsa, Mijoz qarzdorlikni to'liq so'ndirgandan keyin Universal Shartnama tugatiladi. Shartnama/Shartnomalar bekor qilingan va/yoki Bank hisobraqami yopilgan taqdirda, Bank Mijoz tomonidan xizmatlar uchun oldindan to'langan to'lovlarni qaytarmaydi.

6.8. Bank quyidagi hollarda Universal shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli, bunga Mijoz o'z roziligin beradi:

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish kanallaridan foydalanishga asosli shubhalar uyg'onganda. Bunday vaziyatda, Universal shartnama Bank tashabbusi bilan mijozga Universal shartnomani bekor qilish to'g'risida bildirishnoma yuborilgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kuni o'tgandan keyin bekor qilingan hisoblanadi;

- 12 (o'n ikki) kalendar oy mobaynida Bank hisobraqamida pul mablag'lari mavjud bo'lmasa va/yoki Bank hisobraqami bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmasa va/yoki Tariflarga muvofiq muntazam to'lovlarni to'lash uchun hisobraqamida pul mablag'lari yetarli bo'lmasa, Bank Universal shartnomani bekor qilishga haqli. Bunda, agar Mijoz yuqorida ko'rsatilgan muddatda Qarzdorlikni so'ndirish uchun yetarli miqdordagi pul mablag'larini Bank hisobraqamiga o'tkazmasa va/yoki Bank hisobraqami bo'yicha hech bo'limganda bitta operatsiyani amalga oshirmasa, Universal shartnama bekor qilingan, Bank hisobraqami esa Bank tomonidan Mijozga masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish kanallari orqali ogohlantirish yuborilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun o'tgach yopilgan hisoblanadi;

- ushbu Universal shartnama va/yoki Qo'shimchalarda ko'rsatilgan, ushbu Universal kelishuvning ajralmas qismi bo'lgan Shartnomalarda belgilangan boshqa hollarda.

6.9. Tomonlardan biri tashkiliy-huquqiy shaklini, o'zining yuridik yoki pochta manzilini, bank rekvizitlarini va firma nomini o'zgartirgan taqdirda, tegishli Tomon bu haqda boshqa Tomonni 5 (besh) bank kuni ichida yozma bildirishnoma orqali xabardor qilishi shart. Bunda Bank mijozni Bank binosida, ommaviy axborot vositalarida, Bank veb-saytida va/yoki Bank tanlagan boshqa har qanday usulda tegishli e'lonni joylashtirish orqali xabardor qilish huquqiga ega.

7. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

7.1. Tomonlar ushbu Universal shartnama va/yoki Shartnoma(lar)da belgilangan majburiyatlarni buzganliklari uchun amaldagi qonunchilik, Universal shartnama va Shartnoma(lar)ga muvofiq javobgar bo'ladilar. Ushbu Universal shartnomani va/yoki Shartnoma(lar)ning bekor qilinishi Tomonlarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

7.2. Bank banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini, ushbu Universal shartnomani va/yoki Shartnoma(lar)ni buzganlik uchun, shu jumladan Mijoz to'g'risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni asossiz oshkor qilganlik uchun amaldagi qonun hujjatlariga va Shartnoma(lar)ning shartlariga muvofiq **javobgar bo'ladi**.

7.3. Mijoz quyidagilar uchun majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

7.3.1. Hisobraqamdan ko'chirma olingan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida uning hisobraqamiga xatolik bilan (noto'g'ri) kelib tushgan pul mablag'larini qaytarish uchun to'lov topshiriqnomasi bankka taqdim etilmagan taqdirda, Mijoz bankka har bir kechiktirilgan kun uchun

noto'g'ri hisoblangan summaning 0,05% miqdorida penya to'laydi. Shu bilan birga, hisoblangan penyaning umumiyligi summasi xatolik bilan hisoblangan summaning 50 foizidan oshmasligi kerak;

7.3.2. Amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi uchun;

7.3.3. Bankdan olingan naqd pul mablag'larining kassaga o'z vaqtida kelib tushishi, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kassa intizomiga rioya etilishi uchun;

7.3.4. Bankka taqdim etilgan hisobotlarning to'g'riliqi, ishonchliligi va o'z vaqtida taqdim etilishi (zarurat tug'ilganda);

7.3.5. Bankka taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning to'g'riliqi va qonuniyligi uchun;

7.3.6. Mijoz tomonidan ushbu Universal shartnomaning 5.2.16 – 5.2.18-bandlarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi va/yoki lozim darajada bajarmaganligi munosabati bilan xorijiy banklar tomonidan Bankka yetkazilgan zararni (haqiqiy zarar va boy berilgan foyda) qoplash majburiyatini oladi.

7.4. Bank Mijoz tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun kreditorlarga to'lanadigan penyalarni hisoblash va ushlab qolish uchun javobgar bo'lmaydi.

7.5. Agar Tomonlardan biri ushbu Universal shartnoma va/yoki Shartnoma(lar) shartlarini bajarishda amaldagi qonunchilikni buzsa, ikkinchi Tomon buning uchun javobgar bo'lmaydi.

8. BANKNI JAVOBGARLIK DAN OZOD QILINISHI

8.1. Agar o'z majburiyatlarini bajarmaslik suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, urush yoki harbiy harakatlar, shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan, ushbu Universal shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmoyishlar va boshqa aktlar, shuningdek, ikkala tomonning xohishiga bog'liq bo'limgan boshqa holatlar (elektr energiyasi mavjud emasligi, stansiyalararo aloqalar va tarmoq provayderlari orqali telekommunikatsiya aloqasi mavjud emasligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Markaziy Banki Bosh Axborot markazida kompyuterlarning ishdan chiqishi va h.k.) kabilar natijasida yuzaga kelsa, Tomonlardan hech biri ushbu Universal shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining biron bir qismani to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi).

8.2. Bank quyidagi hollarda Universal shartnoma va/yoki Shartnoma(lar) bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganlik yoki qisman bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi:

8.2.1. Banklararo elektron to'lov tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklar holatlarida;

8.2.2. To'lov hujjatlarini tayyorlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli Mijozning to'lovlari kechiktirilganda;

8.2.3. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk muzlatilgan, shuningdek hisobraqamdag'i pul mablag'lar olib qo'yilgan yoki amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisobraqam bo'yicha operatsiyalar to'xtatilgan hollarda;

8.2.4. Naqd pul olish uchun zarur bo'lgan to'lov hujjatlari o'z vaqtida taqdim etilmagan yoki taqdim etilgan hujjatlar noto'g'ri yoki xatoliklarga yo'l qo'yilganda;

8.2.5. Bankga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra, Bank tomonidan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish mumkin bo'limganda va har bir Tomon boshqa Tomon oldida javobgar bo'limgan, Tomonlarning xohishi va irodasi bilan bog'liq bo'limgan, kutilmagan yoki oqilona usullar bilan oldini olinmaydigan, shu jumladan, davlat boshqaruvi va nazorati organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan taqiqlovchi xususiyatga ega cheklovchi aktlar / choralar qabul qilinishi, suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, urush, epidemiya va epizootiya tufayli yoki amaldagi qonun hujjatlarining yoki ularga kiritilgan o'zgartishlarning o'z kuchini yo'qotganligi sababli yuzaga kelgan fors-major holatlar yuzaga kelganda;

8.2.6. Mijozning valyuta mablag'larini qaytarish va ularning o'z vaqtida mijozning chet ellik hamkoriga kelib tushishi uchun, agar mijoz Bankni aldash yoki noto'g'ri taqdim etilgan ma'lumotlar orqali FATFning ommaviy bayonotiga ko'ra yurisdiksiyalarni (qora ro'yxat) o'z ichiga olgan davlatlar bilan tashqi savdo kontraktlari bo'yicha valyuta operatsiyalarini amalga oshirgan bo'lsa, FATF a'zo davlatlar va boshqa yurisdiksiyalarni ushbu yurisdiktsiyalardan kelib chiqadigan pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishning saqlanib qolinayotgan jiddiy xavflaridan xalqaro moliya tizimini himoya qilish maqsadida qarshi choralarni qo'llashga chaqiradi.

9. SHARTNOMANNING BOSHQA SHARTLARI

9.1. Ushbu Universal Shartnomasi va/yoki Shartnoma/Shartnomalar shartlari va ularning bajarilishi bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, nizo Tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan hal qilinadi.

9.2. Agar Tomonlar muzokaralar yo'li bilan tinch yo'l bilan kelishuvga erisha olmasalar, ushbu Universal shartnomadan va/yoki Shartnomadan/Shartnomalardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, ijro etish, buzish, tugatish, bekor qilish, haqiqiy emasligi yoki xulosa qilmaslik da'vogarning qaroriga ko'ra tumanlararo Iqtisodiy sudida nizoning amaldagi qonun hujjatlariga, yurisdiktsiya va vakolatlari qoidalari muvofiq O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida (keyingi o'rnlarda - "Hakimlik sudi" deb yuritiladi) uning "Hakamlik sudi to'g'risida"gi Reglamentiga, "Hakamlik sudi to'g'risida"gi Nizomiga hamda "Hakamlik sudida tomonlarning bojlari, xarajatlari va yig'implari to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq hal etiladi. Tumanlararo iqtisodiy sudga yoki Hakamlik sudiga da'vo arizasini taqdim etish huquqi da'vogarga tegishli.

9.3. Ushbu Universal shartnomani tuzish vaqtida Mijoz Universal shartnomaga barcha Ilovalar va Bank Tariflari bilan tanishtirilgan va to'liq rozi bo'lgan bo'ladi.

9.4. Shu bilan Mijoz Bankning uchinchi shaxslardan pul mablag'larini kelib tushishi muddatlarini nazorat qilish yoki tartibga solish imkoniyatiga ega emasligini tushunadi va rozi bo'ladi. Mijoz va boshqa shaxslar o'rtasidagi hisob-kitoblar bo'yicha o'zaro da'volar Bank ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

9.5. Universal shartnomaning alohida xizmatlarini o'zgartirilishi va/yoki bekor qilinishi Mijozni va/yoki Bankni bunday o'zgartirish va/yoki bekor qilish paytiga qadar yuzaga kelgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

9.6. Sanksiya izohotlari.

9.6.1. Mijoz ushbu bilan quyidagilarni so'zsiz tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

A) ichki davlat va ichki savdo kontraktlari (shartnomalari) bo'yicha barcha kontragentlar (ishtirokchilar), shu jumladan ularning ishtirokchilari/aksiyadorlari/yakuniy benefitsiarlari va nazorat qiluvchi shaxslari Sanksiya ro'yxatlarida emas va ushbu ro'yxatlarga tushmaydi, shu jumladan, quyidagi ro'yxatlarda emas, lekin faqatgina shu ro'yxatlar bilan cheklanmagan holda:

- SDN List (AQSh);
- AQShning taqiqlovchi (bloklovchi) ro'yxatlari;
- EI ning Sanksiya ro'yxatlari;
- Buyuk Britaniyaning Sanksiya ro'yxatlari;
- boshqa qo'llaniladigan Sanksiya va chekllovchi ro'yxatlar.

B) tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari) bo'yicha sotib olinayotgan tovarlar:

- AQSh, EI va Buyuk Britaniyaning taqiqlovchi (bloklovchi) Sanksiya ro'yxatlariga kiritilgan biror-bir tashkilotga sotilmaydi, yetkazib berilmaydi, eksport qilinmaydi va/yoki transportirovka qilinmaydi, yoki AQSh va EI ning eksport nazorati bilan taqiqlangan maqsadlarda ishlatalmaydi;

- AQSh eksport nazorat Qoidalariga xilof ravishda qayta sotilmaydi yoki yetkazib berilmaydi, Rossiya harbiy-sanoat kompleksi va Mudofaa sanoati kompleksi (MSK) ga aloqador yoki boshqacha tarzda bog'liq

bo‘lgan tashkilotlarga qayta sotilmaydi, yetkazib berilmaydi, eksport qilinmaydi va/yoki transportirovka qilinmaydi, yoki boshqacha tarzda Rossiya harbiy-sanoat bazasining mustahkamlanishiga ko‘mak bo‘lmaydi;

V) mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar va operasiyalar (shu jumladan, ekspeditor (ta’mintonchi), yuk tashuvchi va transport ijrarachisi tomonidan tranzit, yuk tashish bilan bog‘liq transport ekspeditsiyasi, yuk tashish va charter (transport ijarasi, fraxt) xizmatlari bo‘yicha operasiyalar) Sanksiya davlatlari va ro‘yxatlariga bevosita va bilvosita aloqador emasligi bo‘yicha javobgarlikka (shu jumladan moliyaviy javobgarlikka) ega bo‘ladi.

Mijoz (xaridor bo‘lgan holda), AQSh, EI va Buyuk Britaniyaning eksport nazorati qoidalari bilan yetkazib beriladigan tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar yoki dasturiy ta’mintondan, yoki Rossiyaga AQSh, EI va Buyuk Britaniyaning eksport nazorati qoidalari zid ravishda yetkazilgan AQShda ishlab chiqarilgan har qanday buyumlar, yoki AQSh komponenti yoxud AQSh yoki EI ning intellektual huquqlari mayjud bo‘lgan tovarlardan foydalanish va ularni topshirish (yetkazib berish) bo‘yicha o‘rnatilgan cheklolarini to‘liq tushunib yetadi (his etadi).

Agar Mijozga yuqorida keltirilganlar bo‘yicha biror-bir o‘zgarish ma’lum bo‘lib qolsa, u bunday o‘zgarish to‘g‘risida o‘z vaqtida Bankni xabardor qilish majburiyatini oladi.

9.6.2. Bank tuzilayotgan tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari) bo‘yicha quyidagi huquqlarga ega:

- Mijozning faoliyati va muayyan bitim yoki operasiyani tekshirish, shu jumladan, Bank tomonidan iqtisodiy Sanksiyalar to‘g‘risidagi qonunchilik (BMT Xavfsizlik Kengashi, AQSh Moliya vazirligi qoshidagi Tashqi aktivlari nazorati boshqarmasi (OFAC) yoki AQSh, EI yoki Buyuk Britaniya hukumatining boshqa organlari tomonidan tartibga solinadigan) talablarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va hujatlarni taqdim etish bo‘yicha Mijozga (ikki ish kuni ichida bajarish muddati bilan) so‘rovlari yuborish;

- operasiyani amalga oshirishni/ijrosini rad etish va zudlik bilan O‘R MB ga xabar berish;

- kiruvchi to‘lojni qaytarish yoki chiquvchi to‘loving ijrosini taqiqlash (bloklash);

- maxfiylikni saqlash bo‘yicha barcha talablarni rivoja etgan holda, ushu operasiyani amalga oshirish/ijro qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan Sanksiya xatarlarini to‘g‘risida Mijozni xabardor qilish;

- Operasiyani amalga oshirish shartlari “Kapitalbank” ATBning Sanksiya xatarlarini boshqarish Siyosati talablariga va Bank risk-appetitigiga muvofiqligini tekshirish davrida Operasiyani amalga oshirish/ijrosini to‘xtatib turish, bunda tekshirish muddati Bank tomonidan mustaqil belgilanadi;

- Bevosita yoki 50% Qoidasi bo‘yicha taqiqlovchi (bloklovchi) Sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslar ishtiroy etayotgan to‘lovlarni Bank tomonga amalga oshirmslik va to‘lovlarni bank-jo‘natuvchiga qaytarish bo‘yicha o‘z korrespondent banklariga so‘rov yuborish;

- bloklovchi Sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan tomonga nisbatan tegishli choralar ko‘rish, shu jumladan, lekin cheklanmasdan: tashqi savdo kontraktiga (shartnomasiga) xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish, Mijozning hisobvarag‘ini bloklash va Mijoz bilan ish munosabatlarni to‘xtatish;

- bunday holatlarga qayta yo‘l qo‘ylmasligi bo‘yicha boshqa choralar ko‘rish.

9.6.2.1. Bank qo‘srimcha ravishda quyidagi huquqlarga ega:

- yuqori xatarga ega bo‘lgan operasiyalarning chiqurlashtirilgan tekshiruvlarini amalga oshirish;

- Sanksiya xatarlarini baholash bo‘yicha tashqi ekspertlar xulosasini so‘rash;

- riskli operasiyalar bo‘yicha hujjat aylanishiga nisbatan qo‘srimcha talablar o‘rnatish;

- xorijiy kontagentlar bilan operasiyalar bo‘yicha maxsus nazorat tizimini kiritish.

9.6.3. Bank quyidagi holatlar uchun javobgarlikka ega emas:

- Korrespondent banklar tomonidan operasiyalarni amalga oshirish rad etilganligi natijasida Mijozda yuzaga kelgan zararlar;

- xorijiy va o‘zbek banklaridagi hisobvaraqlardagi Mijozning pul mablag‘laridan foydalanishga taqiq qo‘ylganida (bloklanganda);

- operasiyalarni amalga oshirishda, qo‘srimcha tekshiruvlar o‘tkazilishi bilan bog‘liq bo‘lgan kechikishlar;

- bilvosita Sanksiya xatarlari belgilari aniqlanganda operasiyalarni amalga oshirish rad etilganda.

9.6.4. Tomonlarning biri yoki ularning manfaatdor shaxslari BMT ning Xavfsizlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi va AQSh Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish bo‘yicha Boshqarmasi (OFAC, Office of

Foreign Assets Control) yoki AQSh, EI, Buyuk Britaniyaning boshqa boshqaruv organining Sanksiyalar ro'yxatlariga tushgan taqdirda, Tomonlarning istalgan biri Universal shartnoma va/yoki Shartnomani zudlik bilan bir taraflama bekor qilish yoki to'xtatib turishga (ikkinchi Tomonni oldindan yozma ogohlantirgan holda) haqli ekanligi to'g'risida Tomonlar kelishib olishdi va tasdiqlaydilar.

Mazkur bandga muvofiq Universal shartnoma va/yoki Shartnomani bir taraflama bekor qilish yoki to'xtatib turish Tomonlarning huquq va manfaatlarini himoyasiga qaratilgan bo'lib, Universal shartnoma va/yoki Shartnomani buzish hisoblanmaydi va Tomonlar uchun mulkiy Sanksiyalar qo'llash yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi.

9.6.5. Tomonlar quyidagilarni tan oladi va bunga o'z roziliginini bildiradi:

- Mazkur Sanksiya izohotlari Universal shartnoma va/yoki Shartnomaning muhim sharti bo'lib hisoblanadi, ularning buzilishi Universal shartnoma va/yoki Shartnomaning bekor qilinishiga asos bo'la oladi, va Universal shartnoma va/yoki Shartnomaning butun amal qilish davrida amal qiladi;

- Sanksiya izohotlarining barcha bandlari bir-biridan mustaqil hisoblanadi, va bir shartning haqiqiy emasligi boshqa shartlarining haqiqiyligiga ta'sir o'tkazmaydi;

- Sanksiya izohotlari va Universal shartnoma va/yoki Shartnomaning boshqa shartlari o'rtaida tafovut bo'lganida, Sanksiya izohotlari ustivor kuchga ega.

9.7. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

9.7.1. Tomonlar shu bilan kafolatlaydilarki, Universal shartnoma va/yoki Shartnoma kuchga kirgan sanada ularning na o'zi, na ularning vakillari, xodimlari, ular nazoratidagi yoki ta'siridagi boshqa shaxslar Universal shartnoma va/yoki Shartnomani tuzish va bajarish bilan bog'liq ravishda hech qanday noqonuniy moliyaviy yoki boshqa turdag'i manfaatlar taklif etishmagan, talab qilishmagan va qabul qilishmagan hamda kelgusida ham bunday harakatlarni amalga oshirmoqchi bo'lishmagan.

9.7.2. Tomonlar Universal shartnoma va/yoki Shartnoma bo'yicha, uning amal qilish davri mobaynida, quyida keltirilgan qoidalarga rioya qilishga, o'z vakillari, xodimlari va nazoratidagi yoki ta'siridagi uchinchi shaxslar tomonidan ushbu qoidalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida oqilona choralar ko'rish majburiyatini oladi.

9.7.3. Tomonlar Universal shartnoma va/yoki Shartnoma amal qilish davrida, istalgan shaklda, shu jumladan uchinchi shaxslar orqali quyida keltirilgan harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

a) Poraxo'rlik – yuqorida ko'rsatilgan shaxslar yoki boshqa shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan tijorat yoki boshqa xususiyatga ega noqonuniy ustunlik olish yoki saqlab qolish maqsadida mulkiy yoki boshqa xususiyatdagi istalgan noqonuniy manfaat taklif qilish, berish, olish yoki bunga tashabbus ko'rsatish;

b) Pora talab qilish yoki pora berishga undash – pora talab qilish, shu jumladan rad etish holatida tahdid bilan bog'liq yoki bog'liq bo'limgan holda;

v) Vakolatlarni suiiste'mol qilish – tijorat yoki boshqa tashkilotlarda boshqaruv yoki boshqa vazifalarini bajarayotgan shaxs tomonidan o'z vakolatlaridan o'zi uchun yoki boshqa shaxslar uchun manfaat va ustunlik olish yoki boshqa shaxslarga zarar yetkazish maqsadlarida ushbu tashkilotning qonuniy manfaatlariga zid ravishda foydalanish;

g) Yuqorida keltirilgan korrupsiya amallaridan olingan daromadlarni legallashtirish, shuningdek mulk, shu jumladan pul mablag'lari jinoyatlardan bo'lgan daromadlar ekanligi ma'lum bo'lgan taqdirda, ushbu mulkning:

- jinoyiy kelib chiqish manbai;

- joylashgan joyi;

- tasarruf etish usuli;

- joyining o'zgartirilishi yoki egalik huquqini yashirish yoki sir saqlash.

d) Tomonlarning korrupsiyaga qarshi amaldagi qonunchiligini buzuvchi boshqa harakatlarni amalga oshirish. Tegishli Tomon ikkinchi tomonni o'zining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligidagi o'rnatilgan qo'shimcha taqiqlar haqida darhol yozma ravishda xabardor qilishga majbur.

9.7.4. Har bir Tomon Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda ko'rsatilgan har qanday holat haqida, yoki bunday holat ro'y berishiga oid asosli g'umonlar to'g'risida boshqa Tomonni darhol yozma ravishda xabardor qilishga, tashkilotda ish etikasi qoidalariга rioya qilish va korrupsiya harakatlariga nisbatan murosasiz munosabat shakllantirish madaniyatini tar'gib qilishga majburdir.

9.7.5. Tomonlar Universal shartnoma va/yoki Shartnomani to‘xtatish yoki bekor qilish uchun Korrupsiya izohotlarining 9.7.3 qo‘srimcha bandida ko‘rsatilgan holat kuchga kirgan tegishli sud qarori bilan o‘rnatalishi kerakligini to‘g‘risida kelishib oldilar.

9.8. Bank mijozlari – Qarz oluvchilar uchun maxsus shartlar

9.8.1. Qoldiq mablag‘larni saqlash bo‘yicha majburiyatlar.

9.8.1.1. Bank oldida har qanday kredit shartnomalari bo‘yicha qarz majburiyatları mavjud bo‘lgan Mijoz Bankda ochilgan barcha talab qilib olgungacha depozit hisobvaraqlarida har kunlik asosda pul mablag‘larining minimal qoldig‘ini saqlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

9.8.1.2. Minimal qoldiq miqdori, Mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan barcha amaldagi kredit shartnomalari bo‘yicha jami asosiy qarz qoldig‘ining kamida 20% (yigirma foizi)ni tashkil etadi.

9.8.1.3. Milliy valyuta – «so‘m»dagi ekvivalent hisob-kitobida, ushbu hisob-kitob amalga oshirilayotgan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi qo‘llaniladi.

9.8.1.4. Mazkur majburiyatga rioya etilishini nazorat qilish Bank tomonidan har kuni operatsion kun yakunida amalga oshiriladi.

9.8.2. Mablag‘lar qoldig‘ini saqlash majburiyati buzilganligi uchun javobgarlik.

9.8.2.1. Mazkur Shartnomaning 9.8.1.1.–9.8.1.4. kichik bandlarida nazarda tutilgan majburiyat buzilgan taqdirda, Bank Mijoza barcha kredit shartnomalari bo‘yicha asosiy qarz qoldig‘iga nisbatan har bir majburiyat buzilgan kalendar kuni uchun 0,0057% (nol butun o‘n mingdan ellik yetti foiz) miqdorida penya hisoblaydi.

9.8.2.2. Penya har kuni hisoblanadi va har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 5-chi (beshinchi) sanasidan kechikmay, majburiyat buzilgan kunlar soni uchun undiriladi.

9.8.2.3. Penya miqdori bankning hisob va avtomatlashtirilgan bank tizimlari ma’lumotlari asosida Bank tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

9.8.2.4. Penya undirish Mijozening Bankdagi istalgan (har qanday) hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (echib olish) yo‘li bilan amalga oshiriladi. Va bunga Mijoz Bankka qo‘srimcha topshiriq yoki roziliksiz asosda so‘zsiz, chaqirib olinmaydigan va bahslashilmaydigan huquqni taqdim etadi.

9.8.3. Mazkur bo‘limni qo‘llash xususiyatlari.

9.8.3.1. Ushbu Shartnomaning 9.8.1.1.–9.8.1.4. kichik bandlarida ko‘rsatilgan majburiyatlar:

- faqatgina Bank bilan kredit huquqiy munosabatlarda bo‘lgan Mijozlarga nisbatan tatbiq etiladi va bunday Mijozlarga bank xizmatlari ko‘rsatishning ajralmas shartlaridan biri hisoblanadi;

- faqatgina Bank oldida amaldagi kredit majburiyatlariga ega bo‘lgan, va tuzilgan kredit shartnomalari doirasida pul mablag‘larining minimal qoldig‘ini saqlash bo‘yicha shu tarzdagi majburiyatni qabul qilgan Mijozlarga qo‘llaniladi.

9.8.3.2. Jami kredit qarzdorligi miqdori o‘zgarganda, minimal qoldiq miqdori ushbu o‘zgarish sanasidan boshlab Mijoza qo‘srimcha xabar bermagan holda avtomatik ravishda qayta hisob-kitob qilinadi.

9.8.3.3. Bank o‘z ixtiyoriga ko‘ra, pul mablag‘lari qoldig‘ini saqlash majburiyati buzilganligi uchun penya qo‘llamasligi mumkin, agar bunday majburiyat buzilishi texnik sabablarga ko‘ra yoki Mijoza bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra ro‘y bergen bo‘lsa.

9.8.3.4. Ushbu maxsus shartlar kredit shartnomalari bo‘yicha Tomonlarning boshqa huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi va ular bilan bir vaqtning o‘zida (parallel ravishda) amal qiladi.

10. FORS-MAJOR

10.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni agar majburiyatlarni bajarilmaslik ushbu shartnoma tuzilganidan so‘ng yuzaga kelgan, tomonlar na oldindan ko‘ra olmagan, na oqilona choralar bilan oldini olishlari mumkin bo‘lmagan favqulodda hodisalar natijasida yuzaga kelgan yengib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa, qisman yoki to‘liq bajarishdan ozod etiladilar. Fors-major holatlariga Tomonlar ta’sir qila olmaydigan va ularning yuzaga kelishi uchun javobgar bo‘lmagan hodisalar, masalan, zilzilalar, suv toshqini, yong‘inlar, ish tashlashlar, davlat organlarining buyruqlari kiradi.

11. SHAXSIY MA'LUMOTLAR

11.1. Shu bilan Mijoz, erkin, o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab, Bankka o'z shaxsiy ma'lumotlarini, shuningdek, agar tegishli bo'lsa: Mijozning manfaatdor shaxslari ma'lumotlarini; Mijozning manfaatdor egalari; Mijozni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxsiy ma'lumotlarini quyidagi maqsadlar uchun qayta ishlashga rozilik berishini tasdiqlaydi:

- Universal shartnoma va/yoki shartnoma/shartnomalarni tuzish va ijro etish imkoniyatlarini baholash, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, faqat shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash orqali, hamkorlik xatarini, Mijozning va/yoki shaxslarning to'lov qobiliyati/ishonchlilagini va/yoki moliyaviy holatni va/ yoki mijozning va/yoki shaxslarning ishbilarmonlik obro'sini baholash, mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar/ hujjatlarning to'g'riliqi va dolzarbligini tekshirish;
- Universal shartnoma va/yoki Shartnoma/Shartnomalarni tuzish va bajarish;
- To'lov tizimining qoidalari va standartlarini joriy etish;
- Bank va/yoki Bank Hamkorlari tomonidan o'tkaziladigan aksiyalar, so'rovlar, tadqiqotlarda ishtirop etish (shu jumladan, elektron, telefon, uyali aloqa va masofadan bank xizmatlari ko'rsatish kanallari orqali o'tkazilgan so'rovlar, tadqiqotlar, lekin ular bilan cheklanmagan holda);
- Bank va/yoki Bank hamkorlari tomonidan yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish;
- Bankning mijozlari va Mijozlari bo'limgan shaxslarga bank xizmatlari bozorida Bank va/yoki Bank Hamkorlarining xizmatlarini ilgari surish;
- Bank tomonidan foydalilaniladigan dasturiy ta'minotni joriy etish va ularga xizmat ko'rsatish;
- Mijoz faoliyati bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni to'plash.

11.2. Universal shartnomaning 10.1-bandida ko'rsatilgan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligi Universal shartnomaning 10.1-bandida ko'rsatilgan istalgan shaxs tomonidan Bank manziliga yozma ariza berish orqali istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin. Universal shartnomaning 10.1-bandida ko'rsatilgan shaxs shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziliginи bekor qilgan taqdirda, Bank amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilmagan ushbu shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni to'xtatish choralarini ko'radi.

11.3. Ariza beruvchi bank hamkorlari tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligini bildiradi.

12. MANZIL VA BANK MA'LUMOTLARI

"Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki

100047, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil 25-dekabrdagi 69-sonli litsenziyasi

**ATB “Kapitalbank” da yuridik shaxslar va yakka
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini
ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnomaga**

1-ILOVA

ATB “Kapitalbank” da (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnomaga va mazkur Universal shartnomaning tegishli ilovasi hisoblangan Shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida:

ARIZA

Mijozning nomi: _____

STIR/JShShIR: _____

Shu bilan Mijoz:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 367, 369 va 370-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ATB “Kapitalbank”da yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha universal shartnomaga (keyingi o‘rinlarda “Universal shartnoma” deb yuritiladi) qo‘shilishini bildiradi;

2. Bankda amalda bo‘lgan Universal shartnoma tahririning barcha qoidalari/shartlari (shu jumladan, ularning barcha ilovalari va qo‘srimchalari, o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish tartibi, Bankning javobgarligi va Tariflari) unga ma’lum ekanligi va to‘liq tushuntirilganligini tasdiqlaydi, va shu asosda:

2.1. Quyidagilarni ochishni so‘raydi:

milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobraqami (3-ilova)

xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobraqami

valyuta kodi _____ (4-ilova)

ish haqi loyihasi va unga xizmat ko‘rsatish uchun tranzit hisobraqami (9-ilova)

BTT korporativ kartasi (11-ilova)

Inkassatsiya qilingan naqd pul tushumlarini hisobga olish uchun tranzit hisobraqami (agar UZCARD EMV/HUMO bo‘lsa, 8-ilova, agar BTT bo‘lsa, 12-ilova)

Tarif

2.2. Mijoz Bankning bank xizmatlari bo‘yicha komissiya tariflari bilan tanishib chiqqanligini va roziligini tasdiqlaydi.

2.3. Ushbu orqali Mijoz Bankka quyidagilarni taqdim etadi:

1. Mijozning Bankda ochilgan hisobraqamidan qo‘srimcha kelishuvlarsiz (akseptsiz) Bankning amalidagi Tariflariga muvofiq ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni hisobdan yechish huquqini;

2. Uning shaxsiy ma’lumotlarini, bank sirlarini qayta ishlashni amalga oshirish, shuningdek, ularni Bankning Hamkorlariga o’tkazish.

3. Mijoz bankning boshqa xizmatlaridan/mahsulotlaridan foydalanish/ulanish uchun o‘z roziligini Masofadan Bank Xizmatlarini ko‘rsatish tizimi orqali ariza berish yo‘li bilan tasdiqlaydi/o‘z roziligini beradi.

Rahbar _____ / _____ / _____

F.I.Sh

imzo

Bosh hisobchi (agar mavjud bo'lsa) _____ / _____
_____ /

F.I.Sh

imzo

Muhr joyi (agar muhr bo'lsa) «____» 202__.

XIZMAT BELGILARI

Ushbu Ariza va Imzo namunalari kartasi xodimning shaxsan ishtirokida Mijoz tomonidan o'z qo'li bilan imzolandi.

Ariza va Imzo namunalari kartasi qabul qilindi:

Xodimning lavozimi: _____

Asl xujjatlarning nusxalarini (shu jumladan elektron nusxalarini) qabul qilgan xodimning to'liq ismi va imzosi:

_____ / _____ /

«____» 202__yil.

MUHR BOSMASI VA IMZO NAMUNALARI VARAQASI

Mijozning nomi: _____

STIR: _____

ATB "Kapitalbank" uchun.

Bizning nomimizdan hujjatlarni imzolashga vakolatli shaxslar imzolari namunalarini, shuningdek, barcha bank hisobraqamlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda majburiy bo'lgan muhr namunasini taqdim etamiz

Familiya, Ism, Otasining Ismi	Lavozimi	Imzo namunasi	Muhr namunasi (agar mavjud bo'lsa)

"__" ____ 202__ yil.

Rahbar _____ / _____ /
F.I.Sh _____ / _____ / imzo

ATB “Kapitalbank” da yuridik shaxslar va yakka
tartibdagи tadbirkorlar uchun kompleks bank
xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha universal
shartnomaga

2-ILOVA

Masofadan bank xizmatlari ko‘rsatish tizimida xizmat ko‘rsatish shartnomasi

1. QO‘SHIMCHA ATAMALAR VA TA’RIFLAR:

1.1. Ushbu Shartnomma maqsadlari uchun quyidagi atamalar va ta’riflar qo’llaniladi:

Masofadan bank xizmati ko‘rsatish tizimi (MBXT) – mijoz tomonidan masofadan turib telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda uzatiladigan (qabul qilinadigan) ko‘rsatmalar asosida mijozga Bankning vakolatli xodimi ishtirokisiz mobil qurilma(mobil telefon, smartfon, planshet va h.k.)ga o’rnataladigan mobil ilova va/yoki global Internet tarmog'i orqali ishlaydigan veb-ilovalardan iborat dasturiy ta’minot bo’lib, bu orqali Mijoz moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkon, shuningdek, ma'lumotlarning olinishi, Mijoz topshiriqlarini shakllantirish, uzatish, ro'yxatdan o’tkazish, bajarish va Mijoz bilan Bank o’rtasida elektron hujjat aylanishini amalga oshirilishini ta’minlaydigan Bank xizmatlari majmui hisoblanadi.

3.4. Tomonlar zimmasida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal sharhnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida, ATB “Kapitalbank”ning ichki hujjatlarida, Sharhnomada belgilangan hisob-kitob tartibi buzilgan taqdirda, shuningdek, Mijoz tomonidan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o‘z vaqtida taqdim etish tartibi buzilganda operatsiyani to‘xtatib turish (qonunga zid bo‘lgan to‘lovnini amalga oshirishni rad etish) bo‘yicha choralar ko‘rish va/yoki uni to‘xtatib turish;

4.1.2. Mijozning bo‘sh pul mablag‘laridan, uning butligini va Mijoz tomonidan erkin tasarruf etilishini kafolatlagan holda resurs sifatida foydalanish;

4.1.3. bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun asos bo‘lgan hujjatlarning haqqoniyligiga shubha paydo bo‘lsa, mijozning imzolash huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarini xabardor qilgan holda bank operatsiyasini to‘xtatib turish. Bunda Bank Mijozdan amalga oshirilayotgan Operatsiyaning asoslanganligini tasdiqlovchi qo‘sishmcha hujjatlarni talab qilishga haqli;

4.1.4. Quyidagi hollarda Mijozga pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish:

- Mijoz boshqaruv organining yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz ish yuritish huquqiga ega bo'lgan shaxsnинг joylashgan joyida (pochta manzilida) mavjud emasligi;
- qasddan soxta hujjatlar taqdim etish yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq so'rالgan hujjatlarni taqdim etmaslik;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq olingan ma'lumotlarga ko'ra, terroristik yoki boshqa jinoiy faoliyatda ishtirok etish yoki ishtirok etishda gumon qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisobraqamdagи pul mablag'lariga ta'qiq qo'yish yoki hisobraqam bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish.

4.1.5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va ATB "Kapitalbank"ning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda mijozning roziligesiz amaldagi qonunchilikka muvofiq Shaxslar Ro'yxatiga kiritilgan hollarda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni (pul mablag'lari ni kirim qilish bo'yicha operatsiyalar bundan mustasno) muzlatish va/yoki to'xtatib turish. Amaliyot to'xtatilgan va (yoki) pul mablag'lari va boshqa aktivlar muzlatilgan taqdirda, Mijozning ko'rsatmasi asosida pul mablag'larini hisobraqamlardan yechib olish amalga oshirilmaydi. Shu bilan birga, Universal shartnoma va/yoki Shartnomalar bekor qilingan taqdirda, Mijoz joriy hisobraqamidagi qolgan pul mablag'larini boshqa bankda ochilgan hisobraqamlariga o'tkazishi shart va pul mablag'lari muzlatilgan taqdirda, pul mablag'lari muzlatilganda hisobraqamdan yechib olish faqatgina vakolatli davlat organi qaroridan keyin hamda mazkur vakolatli davlat organi belgilagan summada amalga oshiriladi. Qaror – pul mablag'laridan foydalanishni rad etish to'g'risida qabul qilinishi mumkin, unda qoldiq balans muzlatiladi;

4.1.6. agar mijozning talabiga ko'ra asosiy hisobraqamida 2-sonli kartoteka mavjud bo'lsa, Mijozning boshqa banklarda ochilgan ikkilamchi va boshqa hisobraqamlarida joylashgan pul mablag'larini Mijozning asosiy hisobraqamiga o'tkazish (O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ushbu talab qo'llanilmaydigan hisobraqamlar bundan mustasno);

4.1.7. Bankning ish kuni tugaganidan va balans hisobotlari tuzilganidan keyin noto'g'ri kirim yozuvlari aniqlangan hollarda, Mijozning roziligesiz keyingi bank ish kunida uning hisobraqamidan noto'g'ri kirim qilingan tegishli summalarini tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmalarini teskari tartibda amalga oshirish orqali hisobdan chiqarish;

4.1.8. Mijozning milliy valyutadagi asosiy hisobraqamida pul mablag'lari yetarli bo'lmasdan, uning xorijiy valyutadagi hisobraqamida pul mablag'lar mavjud bo'lgan taqdirda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, byudjet va boshqa qarzdorliklar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, mijozning roziligi bilan, mijozning xorijiy valyutadagi mablag'larini sotish kunida belgilangan kurs bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun zarur bo'lgan miqdordagi valyuta sotuvini amalga oshirish;

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. Universal shartnoma va ushbu Shartnoma shartlari asosida amaldagi qonunchilik doirasida hisobraqamidagi pul mablag'larini erkin tasarruf etish;

4.2.2. bankka hisob-kitob-kassa operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, ularning o'z vaqtida bajarilishini talab qilish, inkasso yo'li bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun talab qilish;

4.2.3. qonun hujjatlariga muvofiq, hisobraqamda pul mablag'lari mavjud bo'lsa va ular oldindan band qilingan bo'lsa, ish haqi to'lash jadvaliga muvofiq naqd pul olish;

4.2.4. belgilangan tartibda kelib tushmagan pul mablag'larini qidirish, ularning joylashgan joyini aniqlash va qaytarish uchun bankka murojaat qilish;

4.2.5. O‘zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi, unga kiritilgan qo‘sishimcha va o‘zgartishlar to‘g‘risidagi axborotni olish.

4.3. Bank Mijozning pul mablag'lardan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish va tasarruf etish huquqlariga cheklolvar o‘rnatishga haqli emas, qonun hujjatlarida, Universal shartnomada va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.4. Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

5. KOMISSIYA TO’LOVI VA UNING TO’LASH TARTIBI

5.1. Mijoz ko‘rsatilgan bank xizmatlari uchun vositachilik haqi (komissiya to’lovlarini)ni Bank Tariflariga muvofiq to‘laydi.

5.2. Mijozlarning passiv hisobraqamlariga xizmat ko‘rsatish uchun quyidagi hollarda oylik komissiya hisoblanmaydi va undirilmaydi:

- Bir oy davomida mijozning milliy valyutadagi asosiy yoki tranzit hisobraqamlari bo‘yicha bironta operatsiya amalga oshirilmagan bo‘lsa;
- mijozning hisobraqami bo‘yicha faqat kredit operatsiyalari amalga oshirilgan bo‘lsa;
- ssuda hisobraqamlari bo‘yicha ssuda qarzdorlikni so‘ndirishda;
- 16300 – “hisoblangan foizlar bo‘yicha daromadlar”, 16400 – “hisoblangan foizsiz daromadlar” schyotlari bo‘yicha qarzdorliklarni hisoblash va so‘ndirishda;
- Mijozning bank filiali ichidagi bir hisobraqamidan boshqasiga milliy valyutadagi pul mablag'larini o‘tkazishda (mijozning unikal kodi mos kelishi sharti bilan);
- korporativ kartani to‘ldirishda (mijozning unikal kodi mos kelishi sharti bilan);
- aniqlik kiritilgunga qadar pul mablag'larini maxsus hisobraqamlarga vaqtincha joylashtirishda;
- Mijozning unikal kodiga mos keluvchi unikal kod bilan ochilgan maxsus blok-hisobraqamlarni to‘ldirishda;
- Mijoz hisobraqamidagi qoldiqni Bankning bir filialidan boshqa filialiga o‘tkazishda (joriy oyda hisobraqamlar bo‘yicha operatsiyalar mavjud bo‘lmaganda).

5.3. Mijozning hisobraqamlardagi pul mablag'laridan foydalanganligi uchun Bank Mijozga foizlar to‘lamaydi, Bank bilan Mijoz o‘rtasida tuzilgan alohida shartnomalar bundan mustasno.

5.4. Mijozning passiv hisobraqamlariga xizmat ko‘rsatish uchun komissiya (vositachilik) haqi hisobraqamda joriy oyning birinchi to‘lovi o‘tkazilishi bilanoq memorial order asosida har oyda Mijozning roziligesiz akseptsiz tarzda hisobraqamdan yechib olinadi, bundan birinchi navbatda passiv hisobraqamlarga xizmat ko‘rsatish uchun komissiya undiriladi (byudjetga qarzlarni to‘lash hollari va amaldagi qonun hujjatlarida yoki bankning ichki hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno), bunga Mijoz o‘zining qaytarib olinmaydigan va so‘zsiz roziligin beradi.

5.5. Mijozning hisobraqamida komissiya to‘lovini qoplash uchun pul mablag‘i mavjud yoki yetarli bo‘lmagan taqdirda, qarzdorlikning so‘ndirilmagan qismi belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan to‘lov talabnomasi Mijozning 2-sonli kartotekasiga joylashtiriladi. Ko‘rsatilgan to‘lov talabi Mijoz tomonidan qo‘sishimcha tasdiqlarsiz qabul qilingan hisoblanadi.

6. YAKUNIY SHARTLAR

6.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Universal shartnomaga va ushbu Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Shartnoma mijozning arizasiga binoan, mijoz shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda bank talabiga binoan chiqarilgan sud qaroriga asosan, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinmaguncha yoki to'xtatilmaguncha amal qiladi.

6.3. Shartnoma Mijozga ko'rsatilgan bank xizmatlari bilan bog'liq barcha to'lovlar Mijoz tomonidan to'liq to'langandan keyin istalgan vaqtida belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

6.4. Shartnoma bekor qilinganda yoki tugatilganda, Bank mijozning arizasiga muvofiq hisobraqamni yopadi, 7 (yetti) ish kunidan kechiktirmay Hisobraqamdag'i mavjud pul mablag'larining qolgan qismini mijozga beradi yoki amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mijozning ko'rsatmasi bo'yicha qolgan pul mablag'larining qoldig'ini boshqa hisobraqamiga o'tkazadi. Agar Shartnoma bekor qilingan yoki tugatilgandan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida Mijoz bankka boshqa hisobraqamiga pul mablag'larini o'tkazish to'g'risida yozma ko'rsatma bermasa, Bank Mijozning hisobraqamidan pul mablag'larining qolgan qismini 29842 hisobraqamiga o'tkazadi.

6.5. Shartnomani va/yoki Universal shartnomani bekor qilish yoki tugatish Hisobraqamni yopish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mijozning birlamchi/ikkilamchi hisobraqamlari unga tegishli boshqa hisobraqamlar (tranzit, sxemali, maxsus, maqsadli va boshqalar) yopilgandan keyin yopiladi.

6.6. Agar Mijoz savdo faoliyatida 6 (olti) oy davomida, savdo-vositachilik faoliyatida esa 3 (uch) oy davomida Hisobraqam bo'yicha operatsiyalarini o'tkazish orqali molivayi-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmagan bo'lsa, Shartnoma bank tomonidan bir tomonlama to'xtatib qo'yiladi. Shunga mos ravishda, Mijoz tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Ustav kapitalini shakllantirmaganligi sababli Tugatish komissiyasi tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda Shartnomani bir tomonlama to'xtatib qo'yish amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

6.7. Mijoz qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Ustav kapitalini shakllantirmaganligi sababli Tugatish komissiyasi tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, Shartnoma amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bekor qilinadi.

6.8. Shartnoma bekor qilingan yoki tugatilgan taqdirda, Bank Tariflari bo'yicha to'langan komissiya to'lovleri Mijozga qaytarilmaydi.

6.9. Shartnoma bilan bog'liq nizolar tomonlar o'rtaida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishning iloji bo'lmasa, nizolar Universal shartnomada belgilangan tartibda hal qilinadi.

6.10. Bank va mijoz o'rtaсидаги ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Universal shartnoma bilan tartibga solinadi.

**ATB “Kapitalbank”da yuridik shaxslar va vakka
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari
ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnomaga**

4-ILOVA

**Xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobraqamni ochish, unga xizmat ko’rsatish
va yopish bo‘yicha shartnoma**

1. QO’SHIMCHA ATAMALAR VA TA’RIFLAR:

1.1. Ushbu Shartnomada quyidagi atamalar va ta’riflar qo’llaniladi:

Pul mablag’lari - xorijiy valyutadagi pul mablag’lari;

To’lov hujjatlari – Mijoz tomonidan qog’oz yoki elektron shaklda taqdim etilgan, amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq zarur rekvizitlarni o’z ichiga olgan hujjatlar. MBXT orqali elektron shaklda taqdim etilgan to’lov hujjatlari elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan bo’lishi kerak;

Shartnoma - bu xorijiy valyutada bank hisobraqamini ochish, unga xizmat ko’rsatish va yopish bo‘yicha ushbu shartnoma. Ushbu Shartnoma Bank veb-saytida joylashtirilgan;

Hisobraqam – mijozning hisobraqamini ochish to‘g‘risidagi arizasi asosida mijoz uchun bank tomonidan ochilgan xorijiy valyutadagi talab qilib olingucha depozit hisobraqam bo’lib, bunda Mijozning birinchi talabiga ko‘ra berilgan yoki o‘tkazilgan pul mablag’lari hisobi yuritiladi;

Sanksiyalar - davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning qarori bilan davlatlar, tashkilotlar yoki alohida jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo’llaniladigan iqtisodiy yoki boshqa xarakterdagi jamoaviy yoki bir tomonlama majburiy choralar;

Sanksiyaga uchraganlar ro’yxati – Bankning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita tahdid soladigan sanksiyalarni Bankka nisbatan qo’llashi mumkin bo’lgan BMT xavfsizlik kengashi, Yevropa Ittifoqi va Xorijiy aktivlarni nazorat qilish Boshqarmasi (OFAC, Office of Foreign Assets Control) – AQSh Moliya Vazirligi bo’linmalari yoki boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar sanksiyalariga tushgan davlatlar, tashkilotlar yoki boshqa jismoniy va yuridik shaxslar;

1.2. Ushbu Shartnomada foydalilanigan boshqa atamalar va ta’riflar Universal shartnomadagi kabi ma’noga ega

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Shartnoma hisobraqam ochish to‘g‘risidagi ariza yoki Universal shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risidagi ariza asosida Tomonlar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi) va O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi, Universal Shartnoma va ushbu Shartnomga muvofiq Mijoz uchun Hisobraqam ochish, unga kelib tushgan pul mablag’larini qabul qilish va hisobga olish, o‘tkazish va to‘lash, kassa xizmatlarini ko‘rsatish, birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish, hamda hisobraqam bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish (o‘tkazish) bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Ushbu Shartnoma, Universal shartnoma, Bank tariflari, hisobraqam ochish uchun ariza/qo‘shilish uchun ariza bирgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan xorijiy valyutadagi bank hisobraqami to‘g‘risidagi Shartnomani (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb yuritiladi) tashkil etadi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bankning majburiyatları:

3.1.1. mijozga kompleks hisob-kitob-kassa xizmatlarini ko‘rsatish va uning topshirig‘iga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qonunchiligi va normativ hujjatlarida nazarda tutilgan xorijiy valyutadagi barcha hisob-kitob-kassa operatsiyalarini amalga oshirish, shu jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq mijozning hisobraqami bo‘yicha valyuta operatsiyalarini amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda Mijozning o‘ziga tegishli bir hisobraqamidan boshqasiga va boshqa shaxslarning hisobraqamlariga pul mablag‘larini o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalarini bajarish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq To‘lov hujjatlarini to‘lash;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq mijozning hisobraqamlariga tushgan pul mablag‘larini kirim qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda mijozdan naqd xorijiy valyutani qabul qilish va mijozga naqd xorijiy valyutani berish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Mijozning eksport-import shartnomalarini monitoringini olib borish;
- ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalarini amalga oshirish;
- Mijoz bilan tuzilgan alohida shartnomalar asosida hisob-kitob-kassa xizmatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan boshqa xizmatlar(kreditlash, faktoring, lizing, svop, akkreditiv va boshqa valyuta operatsiyalari)ni ko‘rsatish;

3.1.2. to‘lovlarni qabul qilish va jo‘natish bo‘yicha mijozga belgilangan vaqt oralig‘da soat 9-00 dan 16-00 gacha (dam olish va bayram (ishlamaydigan) kunlar bundan mustasno) xizmat ko‘rsatish. To‘lovlar va kassa operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lmagan xizmatlar bank (operations) kuni davomida amalga oshiriladi;

3.1.3. Mijoz nomidan hisob-kitob operatsiyalarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirish. Mijozning hisobraqamidan pul mablag‘larini yechib olish uning nomidan bankka to‘lov hujjatlari kelib tushgan kundan keyingi kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Mijozning rozilgisiz uning hisobraqamidan pul mablag‘larini yechib olishga O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi;

3.1.4. To‘lov hujjatlarini qabul qilishda barcha zarur rekvizitlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirish va pul mablag‘larining maqsadga muvofiq kirim qilinishini ta‘minlash;

3.1.5. O‘zbekiston Respublikasi tijorat bank muassasalarida kassa operatsiyalarini o‘tkazish qoidalariga muvofiq naqd pul tushumlarini qabul qilish;

3.1.6. Mijozni hisob-kitob va kassa hujjatlari bilan ta‘minlash: naqd xorijiy valyutani topshirishga e‘lon va boshqa hujjat blankalari, shuningdek, mijozning talabiga binoan, uning vakolati vakiliga zarur hujjatlar ilova qilingan holda hisobraqamdan ko‘chirmalarni berish;

3.1.7. hisob-kitoblar, bank qurilmalari, hujjat aylanmasi qoidalari va valyutani tartibga solishning boshqa masalalari bo‘yicha mijoz bilan maslahatlar berish;

3.1.8. Bankka ishonib topshirilgan pul mablag‘larining butligini ta‘minlash;

3.1.9. Mijozning buyurtmasiga asosan belgilangan tartibda kelib tushmagan pul mablag‘larini qidirish;

3.1.10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 31-avgustda 3281-sodan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yil 29-avgustdagisi 18/5-sonli Qurorining 1-Ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga

oshirish Qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida chet el valyutasini sotish va sotib olish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish.

3.2. Mijozning majburiyatları:

3.2.1. Hisobraqamlarni ochish va yuritish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni bankka taqdim etish;

3.2.2. bankda belgilangan ish rejimiga, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga rioya qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hujjatlari/qarorlari talablariga rioya etish;

3.2.3. ushbu Shartnomada belgilangan qoidalarga muvofiq bankning hisob-kitob va kassa xizmatlari uchun haq to'lash;

3.2.4. Hisobraqamiga noto'g'ri kiritilgan pul mablag'lari kelib tushganligi to'g'risida quyidagi hollarda 2 (ikki) ish kuni ichida bankni xabardor qilish:

- o'z hisobraqami bo'yicha ko'chirma olish (yoki hisobraqamining holati to'g'risida ma'lumot olish) yoki;

- begona pul mablag'lari kelib tushganidan keyin Hisobraqamdan pul mablag'larni hisobdan chiqarish bo'yicha birinchi operatsiyani bajarish.

3.2.5. xorijiy davlatlarning subyektlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq amalga oshirilgan eksport-import va boshqa operatsiyalar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek zarur hollarda Bank zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etish;

3.2.6. o'z faoliyati va Tranzaksiyalari to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlar va hujjatlar taqdim etilganligi uchun to'liq javobgar bo'lish;

3.2.7. Bank talabiga ko'ra, xorijiy davlatlarning yuridik shaxslari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq amalga oshirilgan eksport-import va boshqa operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, zarur hollarda, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun Bank tomonidan talab qilinadigan boshqa ma'lumotlarni taqdim etishi shu jumladan, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish;

3.2.8. Quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun bank hisob raqam(lar)idan foydalanmaslik (shu jumladan, Bank xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi operatsiyalar):

- Bank va/yoki Mijoz uchun zarar va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin masalan, Mijozga nisbatan vakolatli davlat va / yoki moliyaviy tashkilotlar tomonidan, jumladan Amaldagi qonunchilik tomonidan va / yoki xorijiy mamlakatlarning qonunchiliklari tomonidan, xalqaro huquqiy hujjatlar, sud qarorlari va boshqa vakolatli organlar qarorlari tomonidan Mijozga (uning pul mablag'lariga) nisbatan belgilangan cheklovlari bilan bog'liq sanksiyalar qo'llanilishi;

- pul mablag'larini oluvchi yoki benefitsiar sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxs yoki tomonlar bo'lsa;

- amaldagi qonunchilikka va ATB "Kapitalbank"ning ichki hujjatlari talablariga zid bo'lsa.

3.2.9. Tashqi savdo shartnomasi bo'yicha uning xorijiy hamkor yoki xorijiy hamkorining benefisiar mulkdori sanksiyaga uchraganlar ro'yxati bilan bog'liq emasligi hamda tranzaksiyalar va ta'minot kanallari sanksiyaga uchragan mamlakatlar va sanksiya obyekti hisoblangan geografik hududlar bilan bog'liq emasligi bo'yicha mas'uliyatni (shu jumladan moliyaviy mas'uliyatni) o'z zimmasiga oladi;

3.2.10. Tranzit va tashish bilan bog'liq ekpeditor, tashuvchi, fraxt xizmatlarini ko'rsatuvchi tomonidan xizmatlar ko'rsatilganda mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar, operatsiyalar (jumladan

transport ekspeditsiyasi, tashish va charter (yetkazib berish haqi) bo'yicha shartnomalar) sanksiyaga uchragan mamlakatlar va ro'yxatlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqador emasligi yuzasidan mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

3.3. Tomonlar maxfiylikni saqlashi va boshqa tomonning yozma roziligesiz axborotni tarqatmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.4. Tomonlar zimmasida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1.1. Bankning huquqlari:

4.1.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari/qarorlarida, ATB "Kapitalbank"ning ichki hujjatlarida o'rnatilgan hisob-kitob tartibi buzilgan hollarda, shuningdek, Mijoz tomonidan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o'z vaqtida taqdim etish tartibi buzilganda Bank operatsiyani to'xtatib qo'yish, ya'ni qonunga zid bo'lgan to'lovni amalga oshirishni rad etish bo'yicha choralar ko'rishga haqli;

4.1.3. Mijozning bo'sh pul mablag'lardan, uning butligini va Mijoz tomonidan erkin tasarruf etilishini kafolatlagan holda resurs sifatida foydalanish;

4.1.4. soliq organining taqdimnomasini ijro qilish maqsadida valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasining valyuta birjasida byudjet oldidagi qarzdorlikni qoplash uchun yetarli bo'lgan hajmda sotish kunidagi kurs bo'yicha Mijozning roziligesiz sotadi va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan "Xorijiy valyutadagi hisobraqamlarida mablag'ları bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan byudjet oldidagi majburiyatlarini bajarish tartibi"ga asosan Mijozning milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobraqamiga so'mdag'i ekvivalentini ko'chirib beradi;

4.1.5. Xorijiy davlat rezidenti bo'lgan yuridik shaxs chet davlat rezidenti ekanligi va (yoki) xorijiy davlatga soliq to'lash majburiyatlarini va/yoki chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha hisobraqamlardagi (muddatli va jamg'arib boriladigan omonatlardan tashqari) mablag'lar qoldig'ining kamayishi to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortsa, Bank Tariflariда nazarda tutilgan tartibda, Universal shartnoma va Shartnomalar tuzishni rad etishi yoki bir tomonlama tartibda Universal shartnoma va Shartnomani (to'liq yoki qisman) bajarishni rad etish.

4.1.6. Bir tomonlama tartibda:

- Agar Mijoz Shaxslar ro'yxatida bo'lsa—Universal shartnoma va / yoki Shartnomalarni tuzishni rad etish yoki Universal shartnoma va / yoki Shartnomalarni shartlarini (to'liq yoki qisman) bajarashni rad etish yoki Mijozning tegishli operatsiyalarini (bekor qilish) to'xtatib qo'yish (Shaxslar ro'yxatiga kiritilgan Mijozning hisobraqamiga kelib tushgan pul mablag'larni qabul qilish bo'yicha operatsiyalar bundan mustasno) va/yoki Mijoz bank hisobraqamidagi pul mablag'larini bloklash (muzlatish);

- Agar Mijoz Sanksiya qo'yilgan Shaxslar ro'yxatida bo'lsa va/yoki Mijozga nisbatan AQSh Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasining va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarining "50% qoidalari" qo'llansa va/yoki anketada aks ettirilgan Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlar Mijoz tomonidan haqiqatda amalga oshiriladigan operatsiyalariga mos kelmagan hollarda, Mijoz va/yoki uning operatsiyalarini (kontragentlar (aksiyadorlar, ta'sischilar, benefitsiarlar) ishtiroyida), Mijoz va/yoki uning banklari xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, savdo va boshqa chekllovchi xarakterga ega choralar (shu jumladan ikkilamchi sanktsiyalar) ta'siri ostida bo'lsa, Mijoz bilan Universal shartnoma

va/yoki Shartnomalar tuzishni rad etish yoki Universal shartnoma va/yoki Shartnomani bajarishni (to'liq yoki qisman) rad etish (bekor qilish) yoki Mijozning tegishli operatsiyalarini to'xtatib qo'yish va/yoki Mijoz hisobraqamidagi pul mablag'larini qaytarish huquqi bilan bloklash (muzlatib qo'yish);

- Agar Mijozga pul mablag'larini jonatuvchi shaxs Sanksiya qo'yilgan Shaxslar ro'yxatida bo'lsa va/yoki unga nisbatan AQSh Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasining va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarining "50% qoidalari" qo'llansa va/yoki Mijoz pul mablag'larini jonatuvchi shaxsnинг operatsiyalari (kontragentlar (aksiyadorlar, ta'sischilar, benefitsiarlar) ishtirokida), uning banklari xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, savdo va boshqa cheklovchi xarakterga ega choralar (shu jumladan ikkilamchi sanktsiyalar) ta'siri ostida bo'lsa, Mijoz bilan Universal shartnoma va/yoki Shartnomalar tuzishni rad etish yoki Universal shartnoma va/yoki Shartnomani bajarishni (to'liq yoki qisman) rad etish (bekor qilish) yoki Mijozning tegishli operatsiyalarini to'xtatib qo'yish va/yoki Mijoz hisobraqamidagi pul mablag'larini qaytarish huquqi bilan bloklash (muzlatib qo'yish);

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidida, Universal shartnomada va ushbu Shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, o'z hisobraqamidagi pul mablag'larni mustaqil boshqarish;

4.2.2. bankka chet el valyutasida hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha topshiriqlar berish;

4.2.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidida nazarda tutilgan hollarda va tartibda naqd xorijiy valyutani olish;

4.2.4. bankdan hisob-kitob masalalari, bank qurilmalari, hujjat aylanishi qoidalari va valyutani tartibga solishning boshqa masalalari bo'yicha axborot olish.

4.3. Bank Mijozning pul mablag'laridan o'z xohishiga ko'ra foydalanish va boshqarish huquqlariga cheklovlar o'rnatishga haqli emas, qonun hujjatlarida, Universal shartnomada va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

4.4. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. VOSITACHILIK HAQI VA UNI TO'LASH TARTIBI

5.1. Mijozning hisobraqamida komissiya to'lovini qoplash uchun pul mablag'i mavjud emas yoki yetarli bo'lмаган taqdirda, qarzdorlikning so'ndirilmagan qismi belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan to'lov talabnomasini qo'yish orqali Mijozning 2-sonli kartotekasiga joylashtiriladi. Ko'rsatilgan to'lov talabi Mijoz tomonidan qoshimcha tasdiqlarsiz qabul qilingan hisoblanadi.

5.2. Bank hisobraqamidagi pul mablag'laridan foydalanganlik uchun Mijozga foizlar to'lamaydi.

6. YAKUNIY SHARTLAR

6.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Universal shartnomaga va ushbu Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Shartnoma mijozning talabiga binoan, mijoz shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda bank talabiga binoan chiqarilgan sud qarori bilan, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda tugatilmaguncha yoki bekor qilinmaguncha amal qiladi.

6.3. Shartnoma Mijoz unga bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq barcha to'lovlarni amalga oshirgandan keyin istalgan vaqtida belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

6.4. Shartnoma bekor qilinganda yoki tugatilganda, Bank mijozning arizasiga muvofiq hisobraqamni yopadi, 7 (etti) ish kunidan kechiktirmay Hisobraqamdag'i mavjud pul mablag'larining qolgan qismini mijozga beradi yoki amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mijozning ko'rsatmasi bo'yicha qolgan pul mablag'larini boshqa hisobraqamiga o'tkazadi. Agar Shartnoma bekor qilingan yoki tugatilgandan kundan boshlab 7 (etti) ish kuni ichida Mijoz bankka boshqa hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish to'g'risida yozma ko'rsatma bermasa, Bank Mijozning hisobraqamidan pul mablag'larining qolgan qismini 29842 hisob raqamiga o'tkazadi.

6.5. Shartnoma bekor qilinganda yoki tugatilganda Bank Tariflariga muvofiq komissiya to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

6.6. Shartnoma bilan bog'liq nizolar tomonlar o'rtaSIDAMUZOKARALAR yo'li bilan hal qilinadi. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishning iloji bo'lmasa, nizolar Universal shartnomada belgilangan tartibda hal qilinadi.

6.7. Bank va Mijoz o'rtaSIDAGI ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Universal shartnoma bilan tartibga solinadi.

**ATB “Kapitalbank”da yuridik shaxslar va vakka
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari
ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnomaga**

5-ILOVA

**E-POS terminali orqali UZCARD EMV/ HUMO plastik karta egalariga xizmat ko‘rsatish
shartnomasi**

1. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA’RIFLAR:

1.1. Ushbu Shartnomada quyidagi atama va ta’riflardan foydalaniladi:

Karta – Karta saqlovchisiga Karta hisobraqami bo‘yicha bir necha marotaba transaksiyalarni o‘tkazish imkonini beradigan, Bank yoki O‘zbekiston Respublikasidagi boshqa tijorat banki tomonidan chiqarilgan, UZCARD EMV/HUMO tizimining so‘mdagi mikroprotsessorli plastik kartasi. Kartaning joriy holati haqidagi ma’lumot YAUPM/MBPMda aks etadi;

UZCARD EMV/HUMO – bazaviy elementi “EMV” texnologik platformasidagi Kartalar hisoblangan lokal naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi. Transaksiyalarning haqiqiy vaqt rejimida amalga oshirilishi UZCARD EMV/HUMO tizimining asosiy ajralib turadigan xususiyati hisoblanadi;

Karta hisobraqami – Karta bilan yoki kartasiz ham undagi pul mablag’larini boshqarish mumkin bo’lgan kartaning bank hisobraqami;

Kartaning saqlovchisi – Kartaning egasi yoki kartaning egasi vakolat bergen, emitenet bilan tuzilgan Shartnomaga asosan Kartadan foydalanuvchi va Kartani sotib olingan tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun to‘lov vositasi sifatida taqdim qiluvchi shaxs;

YAUPM – UZCARD bank kartalarining dastlabki emissiyasini, transaksiyalarning avtorizatsiyasi, qayta ishlanishi va kliringini, “UZCARD” BTT doirasida banklar o‘rtasida o‘zaro axborot almashuvini va ularga bank kartalari bo‘yicha amalga oshirilgan banklararo transaksiyalarni tasdiqlash uchun ushbu transaksiyalar haqida ma’lumotning yuborilishini ta’minlovchi Yagona Umumrespublika Protressing Markazi;

MBPM - «Milliy Banklararo Protsessing Markazi» MChJning qisqartirilgan nomi bo‘lib, HUMO bank kartalarining dastlabki emissiyasini, transaksiyalarning avtorizatsiyasi, qayta ishlanishi va kliringini, “HUMO” BTT doirasida banklar o‘rtasida o‘zaro axborot almashuvini va ularga bank kartalari bo‘yicha amalga oshirilgan banklararo transaksiyalarni tasdiqlash uchun ushbu transaksiyalar haqida ma’lumotning yuborilishini ta’minlaydi;

«UZCARD» BTT (Banklararo to‘lov tizimi) – huquqiy normalarning, me’yoriy hujjatlarning, dasturiy-texnik qarorlarning va naqd pulsiz hisob-kitoblarni elektron shaklda amalga oshirishga mo‘lajallangan hamda kartalarni emissiya qiluvchi banklar, tovar/ishlar/xizmatlarni sotuvchilariga xizmat ko‘rsatuvchi banklar, hisob-kitob qiluvchi banklar va YAUPMni birlashtiruvchi tegishli tashkiliy-texnik infratuzilmaning yig‘indisiga asoslangan hududiy taqsimlangan to‘lov tizimi;

Shartnomा – UZCARD EMV/HUMO plastik kartalari egalarining E-POS terminali orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ushbu Shartnomा. Ushbu Shartnomा Bank veb-saytidagi joylashtirilgan;

Emittent – bank kartalari emissiyasini amalga oshiruvchi, o‘zi emissiya qilgan bank kartalariga mulk huquqiga ega bo‘lgan va ularning saqlovchilari va ekvayer banklar oldida ular tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo‘yicha o‘z nomidan majburiyatlarni zimmasiga olgan bank;

Ekvayer – Mijoz bilan tranzaksiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank;

Transaksiya/To‘lov – tovarlar/ishlar/xizmatlar haqini to‘lash uchun karta orqali amalga oshiriladigan to‘lov. Transaksiya karta Saqlovchisi tomonidan dinamik parol, bank kartasi raqami va internet to‘lovlarning boshqa xavfsizlik atributlari yordamida tasdiqlanadi;

Maxsus dasturiy mahsulot (Tizim) – Mualliflik huquqi egasi tomonidan ishlab chiqarilgan intellektual mulk mahsuloti bo‘lib, internet-ekvayring bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga, xususan, Mijozning tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun Karta orqali to‘lovlari bo‘yicha ma’lumotlarni qabul qilish va qayta ishslashni tashkil qilishga mo‘ljallangan tizim hisoblanadi;

Mualliflik huquqi egasi – Bank va Mijoz uchun Tizimga kirishga ruxsat berish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxs;

To‘lovlarni qabul qilish shaxobchasi (TQSH) – Tizimga integratsiya qilingan To‘lov vositalaridan foydalanim To‘lovlarni qabul qilishga mo‘ljallangan alohida ish joylari;

E-POS terminal – internet-do‘konda yoki Mijozning TQSHsida tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun karta orqali to‘lovlarni qabul qilishga va amalga oshirilgan transaksiyalar bo‘yicha real vaqt rejimida YAUPM/MBPMdan elektron cheklarni shakllantirishga mo‘ljallangan virtual terminal;

To‘lov vositalari – jismoniy shaxs - bank mijozlariga o‘zlarining karta hisobraqamlarini boshqarishga, Mijozga mobil ilova, web-ilova, USSD so‘rov yoki QR-kod yordamida tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishga imkon beradigan, Tizimga ulangan dasturiy-apparat majmua;

USSD (Unstructured Supplementary Services Data) so‘rov – real vaqt rejimida mobil telefon yordamida karta Saqlovchisi va To‘lov instrumenti/Tizim o‘rtasida ma’lumot almashish. USSD so‘rov yordamida karta Saqlovchisi kartadan Mijoz foydasiga transaksiya amalga oshirishi mumkin;

QR-kod – matriksali kod (ikki o‘lchovli shtrix kod) bo‘lib, bu qora va oq elementlar yoki bir nechta turli darajadagi yorqinlik elementlari, odatda kvadrat shaklida, to‘rtburchaklar yoki kvadrat guruhga joylashtirililadi. Ushbu kod Mijozning ma’lumotlarini va/yoki mijozning E-POS terminali orqali tranzaktsiyalarni amalga oshirish uchun veb-havolani kodlaydi

Transaksiya fayllari - E-POS terminalda amalga oshirilgan transaksiyalar bo‘yicha YAUPM/MBPM dan olingan ma’lumotlar mavjud bo‘lgan fayllar;

Elektron chek – kartadan foydalangan holda onlayn transaksiyaning amalga oshganligini transaksiya o‘tkazilganidan keyin tasdiqlovchi, web-ilovada, mobil ilovada aks etuvchi yoki SMS xabarnoma ko‘rinishidagi kvitansiya. O‘tkazilgan to‘lov, operatsiya summasi, operatsiya amalga oshgan sana, shuningdek, kartani, ushbu elektron chekni shakllantirgan E-POS terminalni aniq identifikatsiya qilishga imkon beruvchi boshqa ma’lumotlar haqida umumiyl axborotni o‘z ichiga oladi;

Reversal – aloqada xatoliklar (uzilishlar) sodir bo‘lganda yoki Mijoz tomonidan tovarlar (xizmatlar)ni sotib olish rad qilinganida Karta bo‘yicha E-POS terminaldagি transaksiyani bekor qilish;

Internet do‘kon – Mijozga u sotgan tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun karta Saqlovchilaridan To‘lov instrumenti yoki web-ilova yordamida to‘lovlarni qabul qilish imkoniyatini beruvchi dasturiy interfeys;

Merchant ID – Mijozni YAUPMda ro‘yxatdan o‘tkazishda olingan, Mijozning UZCARD EMV/HUMO tizimidagi identifikatsion raqami;

Terminal ID – Mijozni YAUPM/MBPMda ro‘yxatdan o‘tkazishda olingan, E-POS terminalning UZCARD EMV/HUMO tizimidagi identifikatsion raqami;

Avtorizatsiya – UZCARD EMV/HUMO tizimi texnologiyasiga asosan telefon, elektron shaklida va boshqa aloqa vositasi orqali kartadan foydalanim operatsiya amalga oshirishga karta emitentining ruxsatini olish jarayoni;

1.2. Ushbu Shartnomada foydalanilgan boshqa atamalar va ta'riflar Universal shartnomadagi kabi ma'noga ega.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Shartnoma Ariza asosida Tomonarning telekommunikatsiya vositalarini intergatsiyalash bo'yicha barcha texnik ishlar bajarilganidan so'ng Tomonlar uchun majburiy bo'ladi (kuchga kiradi), Arizaga asosan Mijoz topshiriq beradi, Bank esa karta Saqlovchilariga xizmat ko'rsatishni ta'minlash majburiyatini oladi, ya'ni aynan:

-kartadan foydalanib amalga oshirilgan transaksiyalar bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishslashni tashkil etish maqsadida Mijozni Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga ulaydi;

- Mijoza biriktirilgan E-POS terminalni Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga ulash maqsadida uni ro'yxatga oladi va xizmat ko'rsatadi;

- Mijozning hisobraqamiga pul mablag'larining o'z vaqtida va to'liq hajmda kirim qilinishi ta'minlaydi.

Ushbu Shartnomaning ilovalarida keltirilgan barcha hujjatlar shaxsan imzolangan yoki elektron shaklda tuzilgan va ERI bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak

2.2. Ushbu Shartnoma, Universal shartnoma, Tariflar, Ariza, birqalikda Mijoz va Bank o'rtaida Mijoza E-POS terminali orqali UZCARD EMV/HUMO plastik karta egalariga xizmat ko'rsatish Shartnomasi (keyingi o'rnlarda "Shartnoma" ded yuritiladi) orqali tuzilgan hisoblanadi.

2.3. Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so'mda amalga oshiriladi.

2.4. Mijozning Interenet do'kon mavjud bo'lsa, Internet do'kon Tizimning va "UZCARD/HUMO" BTTning axborot xavfsizligi talablariga javob bersagina, Bank Mijoz uchun karta Saqlovchilarga xizmat ko'rsatish imkoniyatini taqdim qiladi.

2.5. Mijozni Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga texnik jihatdan ulash Tizimga Mualliflik huquqi egasi tomonidan ajratilgan mutaxassislarining texnik ko'magi bilan amalga oshiriladi.

2.6. O'tkazilgan transaksiyalar to'g'risidagi axborotlarni yuborish ruxsat etilgan formatlar asosida elektron shaklda (real vaqt rejimida) va "UZCARD/HUMO" BTT hamda Tizim va/yoki To'lov instrumenti talablariga asosan ruxsat berilgan tarmoqlardan hamda aloqa vositalaridan foydalanib amalga oshiriladi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Mijozning majburiyatları:

3.1.1. o'zining talab qilib olinguncha (birlamchi/ikkilamchi) bank hisobraqamida, agar mijozning asosiy/ikkilamchi hisobraqami bo'lmasa, u holda 22896 _____ hisobraqamida Shartnoma bo'yicha bankka to'lanishi kerak bo'lgan komissiya, shuningdek jarima/neustoykalarni to'lash yoki bankka yetkazilgan zararni qoplash uchun yetarli miqdordagi mablag'larni saqlash.

3.1.2. Shartnoma bo'yicha bankka to'lanishi kerak bo'lgan komissiya, shuningdek jarima/neustoykalarni to'lash yoki bankka yetkazilgan zararni qoplash uchun talab qilib olinguncha (birlamchi/ikkilamchi) hisobraqamida yoki Mijoza Bank tomonidan 5.2-bandga muvofiq xizmat ko'rsatilsa, 22896 _____ hisobraqamida yetarli mablag' bo'lmasa, 2 (ikki) bank ish kuni ichida tegishli hisobraqamini yetarli miqdordagi mablag' bilan to'ldirish;

3.1.3. E-POS terminalidan belgilangan maqsadda foydalanish;

3.1.4. Ariza topshirilgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida Bank va/yoki tizim mualliflik huquqi egasiga mijoz o'zining hisob tizimining shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini (login va parol), shuningdek, Tizim va/yoki to'lov vositasi bilan integratsiya uchun lozim bo'lgan barcha zarur texnik

ma'lumotlarni taqdim etishi. Mijoz shu bilan shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini Shartnoma maqsadlari uchun tizimning Mualliflik huquqi egasiga bank tomonidan o'tkazilishiga roziligini tasdiqlaydi;

3.1.5. Shartnoma bo'yicha Tizim va/yoki To'lov vositasi bilan axborot almashishda ishtirok etadigan qurilmasi va Internet-do'kon/TQShning axborot xavfsizligini va o'zaro texnik aloqasini ta'minlash;

3.1.6. Savdo ma'lumotlari parametrlarini qabul qilish, tekshirish va jo'natish bo'yicha texnik talablarga, shuningdek Tizim bilan ishslash qoidalariga qat'iy rivoja qilish;

3.1.7. Mijozni Tizimga va/yoki To'lov vositasiga ulash uchun bankka va/yoki tizimning Mualliflik huquqi egasiga barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish;

3.1.8. Bank va/yoki mualliflik huquqi egasiga Internet-do'kon yoki TQSh orqali sotiladigan tovarlar/ishlar/xizmatlar ro'yxatini taqdim etish;

3.1.9. Faoliyat turi o'zgargan taqdirda, bu haqda bankni darhol xabardor qilish;

3.1.10. Bank bilan o'zaro aloqa qilish va hujjat aylanishini ta'minlash uchun mas'ul xodimni (keyingi o'rnlarda "mas'ul xodim" deb yuritiladi) tayinlash. Bank bilan o'zaro aloqa qilish uchun mas'ul xodim o'zgargan taqdirda, Mijoz bu haqda bankni 3 kun ichida yangi tayinlangan ma'sul xodimga aloqaga chiqish ma'lumotlarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabardor qilishi;

3.1.11. E-POS terminal orqali operatsiyalarni amalga oshirishda Karta egalari va boshqa banklar bilan yuzaga keladigan ziddiyatlari vaziyatlarni mustaqil ravishda hal qilish;

3.1.12. web-sayt, manzil o'zgargan va/yoki bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, Mijoz bunday o'zgarishlardan keyin 2 kalendar kuni ichida bu haqda Bankni yozma ravishda xabardor qilishi.

3.1.13. ushbu Shartnomaga 1-ilovaga muvofiq haqqoniy ma'lumotlar bilan Mijoz so'rovnomasini to'ldirish.

3.2. Bank majburiyatları:

3.2.1. Mijoz tomonidan ariza berilgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida Mijozni Bankning avtomatlashtirilgan tizimida ro'yxatdan o'tkazish, YAUPM/MBPM dan Merchant ID va Terminal ID olish uchun Mijozni UZCARD EMV/HUMO tizimida ro'yxatdan o'tkazish, Merchant ID va Terminal IDni Mijozga Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida topshirish. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasining shakli ushbu Shartnomaga 2-ilovada keltirilgan;

3.2.2. Bank YAUPM/MBPM dan tranzaksiya fayllarini olgandan keyin keyingi bank kunidan kechiktirmay, barcha qayta ishlangan operatsiyalar summasi miqdoridagi pul mablag'larini Mijozning so'rovnomasida ko'rsatilgan asosiy/ikkilamchi talab qilib olingumcha hisobraqamiga o'tkazish;

3.2.3. Xizmatlar ko'rsatishning normal rejimi buzilishiga olib keluvchi, Bank tomonida rejalashtirilgan texnologik ishlarning o'tkazilishi (favqulodda vaziyatlar) haqida faks yoki elektron pochta orqali, Bankning rasmiy saytida xabar berish vositasida yoki Bankning tanlovi bo'yicha boshqa har qanday usulda Mijozga xabar berish;

3.2.4. Tizimning ishlashi va hujjat aylanishi uchun mas'ul shaxsni (keyingi o'rnlarda Bankning mas'ul xodimi deb yuritiladi) tayinlash;

3.2.5. Mijozning yozma so'roviga ko'ra, qayta ishlangan operatsiyalar to'g'risidagi ko'chirma taqdim etish.

3.3. Tomonlar maxfiylikni saqlashi va boshqa Tomonning yozma roziligesiz axborotni tarqatmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Tizimning ishlashi bo'yicha maslahat olish uchun Bank yoki to'g'ridan-to'g'ri tizimning Mualliflik huquqi egasi bilan bog'lanish. Ushbu maqsadlarda Tizimning mualliflik huquqi egasi bilan bog'lanish uchun quyidagi kanallar mavjud: (1) "ishonch telefoni" raqamlari: _____;

4.1.2. Amalga oshirilgan Transaksiyalar haqida Bankdan yozma shaklda ko'chirma so'rash yoki uni masofaviy bank xizmati tizimi orqali shakllantirish;

4.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega emas:

4.2.1. Reversal operatsiyasi amalga oshirilganda yoki Karta saqlovchisi tovar/ish/xizmatni rad etgan taqdirda, naqd pul shaklida qaytarish. Bunda Mijoz Karta saqlovchisining arizasiga asosan Karta hisobraqagmiga pul mablag'larini o'tkazishi lozim;

4.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan nazorat funksiyalariga ega shaxslardan tashqari boshqa uchinchi shaxslarga Transaksiyalarni bajarish va ularni amalga oshirish usullari haqidagi ma'lumotlarni berish;

4.2.3. Tizimga Mualliflik huquqi egasi va Bank bilan kelishilmagan holda Transaksiyalar o'tkazish jarayonini ustidan nazoratni ushlab turish imkonini beruvchi E-POS terminalni qo'shimcha chaqiruv yo'riqnomalarini joriy etish.

4.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.3.1. Tizimda ishlash masalalari bo'yicha mijozga tavsiyalar berish;

4.3.3. Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish, shuningdek, bahsli operatsiyalar va Kartalardan noqonuniy foydalanish bo'yicha tekshiruv o'tkazish;

4.3.4. Tizimning E-POS-terminaliga bog'lanish bo'yicha yo'riqnomalar va/yoki To'lov vositasiga hamda UZCARD/HUMO BTTga ma'lumotlarni uzatish talablarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish/qo'shimchalar kiritish;

4.3.5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan Mijozning buyrug'isiz (akseptisiz) Mijozning talab qilib olinguncha (birlamchi/ikkilamchi) bank hisobraqamidan mablag'larni Bank Tariflariga muvofiq memorial order asosida yechib olish, Mijoz bunga o'zining qaytarib bo'lmaydigan va so'zsiz huquqini beradi;

4.3.6. Shartnomani quyidagi hollarda hech qanday ogohlantirishsiz vaqtincha to'xtatib turish:

- Bank tomonidan E-POS-terminal orqali amalga oshirilgan shubhali (gumonli) operatsiyalar aniqlansa, Mijozdan amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish olgunga qadar;

- Mijozning mablag'lari yoki boshqa mol-mulki bilan bog'liq operatsiyalar muzlatilgan va/yoki to'xtatilganda;

- hisobraqamdag'i pul mablag'lariga ta'qiq qo'yilganda yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda hisobraqam bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilganda;

- Tizimga va/yoki To'lov instrumentiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq shoshilinch avariya va reglament bo'yicha ishlar bajarilganda;

4.3.8. Bank tomonidan quyidagi holatlар aniqlangan kuni, Bank Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishni kuni bir tomonlama rad etish:

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish uchun E-POS terminalidan foydalanilganligi haqida asosli shubhalar paydo bo'lganida;

- shubhali (gumonli) operatsiyalarni takroran amalga oshirish yoki jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bankning E-POS terminalidan foydalanishga asosli shubhalar uyg'onganda.

4.3.9. Agar Mijoz ushbu Shartnomaning 3.1. va 4.2.-bandlarida ko'rsatilgan shartlarni buzgan bo'lsa yoki Mijoz bir oy davomida Karta egalariga xizmat ko'rsatmagan bo'lsa, Shartnomani bir tomonlama bekor qilish (bajarishni rad etish).

4.3.10. Tranzaksiyalar bo'yicha mijozning mablag'larini o'tkazishni bir tomonlama to'xtatib turish, agar:

- E-POS terminali, UZCARD/HUMO BTT va Tizim va/yoki to'lov vositasidan foydalanish qoidalari buzilganligi sababli Tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar noto'g'ri tuzilgan bo'lsa;

- Karta egasi tomonidan Tranzaksiyalar bo'yicha da'vo arizasi berilgan va bu da'vo O'zbekiston Respublikasining vakolatli sud organlari tomonidan qanoatlantirilgan bo'lsa;

- Mijozni qayta tashkil qilish yoki tugatish jarayoni mavjud bo'lsa. Bunda Tranzaksiyalar bo'yicha pul mablag'larini o'tkazish tugatish komissiyasi yoki boshqa vakolatli organlarning tegishli qarori qabul qilinmaguncha ushlab turiladi;

- Mijoz ushbu Shartnomaning 3.1. va 4.2.-bandlarida o'ziga yuklangan majburiyatlarni bajarmasa.

4.3.11. shubhali (gumonli) operatsiyalarning oldini olish yoki aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda Mijozning Karta egalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha amaldagi faoliyati va faolligi ustidan monitoring olib borish;

4.3.12. Mijoz tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov shartlarini buzganlik uchun undan kechiktirilgan har bir kun uchun qarzdorlik summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summasining 20 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda jarima undiriladi.

4.3.13. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.4. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. XIZMATLAR UCHUN TO'LOV MIQDORI VA UNI TO'LASH TARTIBI

5.1. Bank Mijozen Kartalar bo'yicha to'lovlarni qabul qilish bo'yicha E-POS-terminalga xizmat ko'rsatganligi uchun komissiya to'lovini milliy valyutada ochilgan asosiy/ikkilamchi talab qilib olinguncha hisobraqamidan memorial order asosida akseptsiz Bankning Tarifiga muvofiq yechib oladi. Bunda Mijoz o'zining qaytarib bo'lmaydigan va so'zsiz huquqini beradi.

5.2. Mijozning Bankda milliy valyutadagi talab qilib olinguncha asosiy/ikkilamchi hisobraqami bo'lmasa, Mijoz E-POS-terminalga xizmat ko'rsatganlik uchun komissiya to'lovini bankda ochilgan 22896xxx hisobraqamiga Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 1 bank ish kuni ichida pul o'tkazish yo'li bilan oldindan to'laydi. Oldindan avans to'lovi miqdori 500 000 (besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi. Mijoz ushbu hisobraqam bo'yicha 500 000 (besh yuz ming) so'mni ushlab turish majburiyatini oladi.

5.3. Kartalar bo'yicha to'lovlarni qabul qilish uchun E-POS terminaliga xizmat ko'rsatganlik uchun komissiya miqdori va uni hisob-kitob qilish tartibi Bank tariflariga asosan belgilanadi.

5.4. Mijozning hisobraqamida komissiya to'lovi uchun mablag' mavjud bo'limgan yoki yetarli bo'limgan taqdirda, qarzning to'lanmagan qismi belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan to'lov talabnomasini qo'yish orqali Mijozning 2-sonli kartotekasiga joylashtiriladi. Ushbu to'lov talabnomasi biror-bir qo'shimcha tasdiqlarsiz Mijoz tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Universal shartnomaga va ushbu Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Ushbu Shartnomaning predmeti bilan bog'liq holda Tomonlardan biriga moddiy yoki moliyaviy zarar yetkazilgan taqdirda, aybdor tomon bunday zararni qoplaydi.

6.2. Mijoz quydagilar uchun to'liq javobgar bo'ladi:

- Shartnomaga muvofiq bankka taqdim etilgan ma'lumotlarning, shu jumladan Internet-do'kon va boshqa to'lovlarini qabul qilish shahobchalari orqali sotiladigan tovarlar/ishlar/xizmatlar ro'yxatiga oid ma'lumotlarning to'g'riliqi uchun;

- E-POS-terminal orqali karta saqlovchilari bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning to'g'riliqi va qonuniyligi uchun.

6.3. Bank quydagi hollarda javobgar bo'lmaydi:

- E-POS terminal orqali Tranzaktsiyalarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarning qurilmalari yoki aloqa kanallari ishidagi nosozliklar uchun;

- mijozning axborot resurslari, telekommunikatsiya vositalari ruxsat etilmagan harakatlardan lozim darajada himoyalanganligi natijasida Mijozga yetkazilgan zarar uchun;

- Mijoz tomonidan tovarlarni/ishlarni/xizmatlarni sotish bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun Karta saqlovchilari oldida;

- quydagi pul mablag'larini qaytarish uchun:

ushbu Shartnoma shartlariga mos kelmaydigan yoki ularga zid bo'lgan operatsiyalar uchun; ushbu Shartnomaning 4.3.8-bandida ko'rsatilgan sabablar bo'yicha.

- banklararo elektron to'lov tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklar;

- bankka bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra va fors-major holatlari oqibatida Bank Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasa.

6.4. Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydilar, agar muvaffaqiyatsizlik uchinchi shaxslarning aybi bilan sodir bo'lsa. Bunday holda, Tomonlar, agar mavjud bo'lsa, uchinchi shaxslar bilan shartnoma munosabatlaridan foydalangan holda, xizmatlar ko'rsatishdagi uzilish sabablarini bartaraf etish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish majburiyatini oladilar.

7. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Shartnoma Mijoz tomonidan Ariza topshirilgandan keyin kuchga kiradi va 1 (bir) yil muddatga amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashiga 20 (yigirma) bank ish kuni qolganida tomonlardan hech biri Shartnomani bekor qilish istagini bildirmasa, Shartnoma har safar keyingi kalendar yili uchun uzaytirilgan hisoblanadi.

7.2. Shartnoma Universal shartnomada va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, Tomonlardan birining tashabbusi bilan boshqa Tomonni kutilayotgan muddatdan 10 (o'n) bank kuni oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda, bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki bekor qilinishi mumkin. mijoz barcha majburiyatlarini bajargan va Shartnoma bo'yicha Bank oldida qarzi bo'lмаган taqdirda, tugatish sanasi.

7.3. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi yoki tugashi bilan Tomonlar, agar mavjud bo'lsa, o'z majburiyatları bo'yicha barcha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish majburiyatini oladilar.

7.4. Shartnoma bekor qilingan yoki bekor qilingan taqdirda, agar mijozga Bank 5.2-bandga muvofiq shartlarda xizmat ko'rsatsa. Ushbu Shartnoma bo'yicha hisobraqamda avans to'lovingin foydalanimagan summasi mavjud bo'lsa, tomonlar o'rtasida solishtirish dalolatnomasi tuziladi, uning

asosida Bank qolgan mablag'larni mijozning istalgan tijorat bankida ochilgan talab qilib olinmaguncha depozit hisobraqamiga o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasi banki.

7.5. Shartnoma bekor qilingan yoki bekor qilingan taqdirda, Bank Tariflari bo'yicha komissiya to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

7.6. Shartnoma bilan bog'liq nizolar tomonlar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishning iloji bo'lmasa, nizolar Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi.

7.7. Bank va mijoz o'rtaсидаги ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Universal shartnoma bilan tartibga solinadi.

E-POS terminal orqali UZCARD EMV/ HUMO plastik
karta egalariga xizmat ko'rsatish shartnomasiga

1-ILOVA

MIJOZ SO'ROVNOMASI

Mijozning nomi _____

Yuridik manzili: _____

Mo'ljal: _____

Mijozning internet-sayti
(agar mavjud bo'lsa) _____

Rahbarning F.I.Sh _____

Rahbar bilan bog'lanish
uchun telefon raqami _____

Buxgaltering F.I.Sh _____

Buxgalter bilan bog'lanish
uchun telefon raqami _____

To'lov vositasi va/yoki
Tizimda ro'yxatdan
o'tkazish uchun mobil
telefon raqami _____

Bank hisobraqami
rekvizitlari _____

Faoliyat sohasi (Pulli
xizmat/ savdo korxonasi): _____

Rahbar _____ Yuqoridagi ma'lumotlarning to'g'riligini
(Izmo)
M.O'. tasdiqlayman

ATB «Kapitalbank» _____ Mijozning xodimlariga Yo'riqnomma bo'yicha
nomidan tushuntirish ishlari o'tkazildi

E-POS terminal orqali UZCARD EMV/ HUMO plastik
karta egalariga xizmat ko'rsatish shartnomasiga

2-ILOVA

TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

«____» «_____» «_____» yil

ATB “Kapitalbank” tomonidan quyidagi vakillar:

Boshqaruvchi:

Plastik kartalar bo'limi
boshlig'i/sektori rahbari:

va Mijoz tomonidan:

Rahbar:

mazkur DALOLATNOMAni quyidagicha tuzdilar, ATB «Kapitalbank»ning vakillari tomonidan **TOPSHIRILDI**, Mijoz tomonidan esa quyidagi ma'lumot **QABUL QILINDI**:

Nº	Merchant ID	Terminal ID
1	_____	_____

Tomonlar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan dalolatnomani imzolaganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilganlar.

Bank tomonidan topshirildi:

Mijoz tomonidan qabul qilindi:

Boshqaruvchi

M.O'.

F.I.Sh

Plastik kartalar bo'limi
boshlig'i/sektori rahbari

Imzo

M.O'.

**ATB “Kapitalbank”da yuridik shaxslar va vakka
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari
ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnomaga**

6-ILOVA

“InfoServis” tizimida xizmat ko‘rsatish shartnomasi

1. QO‘SHIMCHA ATAMALAR VA TA’RIFLAR:

1.1. Ushbu Shartnomada qo‘yidagi atama va ta’riflardan foydalaniladi:

Yo‘riqnomा – ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan (1-Ilova), shuningdek, ATB “Kapitalbank” ning axborot resurslarida joylashtirilgan, “Info Servis” tizimi bilan ishslash bo‘yicha hujjat;

Shartnomा – ushbu “InfoServis” tizimida xizmat ko‘rsatish Shartnomasi. Mazkur Shartnomma Bankning Veb-saytida joylashtirilgan;

SMS (short message service) – qisqa xabarlar xizmati, mobil telefon yordamida jo‘natiladigan matnli xabar;

InfoServis (InfoService) – Mijozning so‘rovi yoki Bank tashabbusi bilan mobil telefon, elektron pochta, shahar telefoni va faks hamda boshqa axborotni yetkazib berish kanallari vositasida Mijozning Bankdagi moliyaviy faoliyati to‘g‘risida axborot xususiyatidagi ma’lumotni taqdim qiladigan Mijozlarga axborot xizmati ko‘rsatish tizimi;

SMSInfo – Mijozga real vaqt rejimida mobil aloqa vositasida bank hisobraqamlarining holati va ular bo‘yicha o‘tkazilgan operatsiyalar haqida SMS xabarnoma shaklida ma’lumot olish imkoniyatini beradigan “InfoServis” tizimining bir qismi;

E-MAILInfo – Mijozga real vaqt rejimida Internet elektron pochta vositasida bank hisobraqamlarining holati va ular bo‘yicha o‘tkazilgan operatsiyalar haqida SMS xabarnoma shaklida ma’lumot olish imkoniyatini beradigan “InfoServis” tizimining bir qismi.

1.2. Ushbu Shartnomada foydalanilgan boshqa atamalar va ta’riflar Universal shartnomadagi kabi ma’noga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Shartnomma Mijoz tomonidan berilgan Buyurtmanomaga asosan Tomonlarning telekommunikatsiya vositalarini intergatsiyalash bo‘yicha barcha texnik ishlar bajarilganidan so‘ng Tomonlar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi), Buyurtmanomaga asosan Mijoz topshiriq beradi, Bank esa Mijozning operatsiyalari bo‘yicha axborot almashinishini tashkil qilish va Mijozga boshqa ma’lumotlarni taqdim qilish maqsadida Mijozni “InfoServis” tizimiga ulash va tizimda uning ishini qo‘llab-quvvatlash majburiyatini oladi.

2.2. Mazkur Shartnomma, Universal Shartnomma, Tariflar, Buyurtmanoma, barchasi birgalikda Mijoz bilan Bank o‘rtasida “InfoServis” tizimida xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan Shartnomani (keyingi o‘rinlarda – “Shartnomा”) tashkil etadi.

2.3. Mijoz tomonidan berilgan Buyurtmanoma Mijoz Yo‘riqnomा bilan tanishganligini va unga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bankning majburiyatları:

3.1.1. Buyurtmanoma berilgandan so‘ng 3 (uch) kun ichida Mijozni Buyurtmanomada ko‘rsatilgan hajmda va aloqa kanallari bo‘yicha “InfoServis” tizimiga ulash;

3.1.2. Mijozning so‘roviga ko‘ra 12 (o‘n ikki soat) ichida, shuningdek, Buyurtmanomada ko‘rsatilgan muayyan voqeа yuz berganda va/yoki vaqt kelganda, unga Buyurtmanomada

ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali hisobraqamlar bo'yicha Bankdagi faoliyati haqida zarur ma'lumotlarni yuborish;

3.1.3. O'z tashabbusi bilan Buyurtmanomada ko'rsatilgan telefon raqamiga va/yoki elektron pochta manziliga e'lолнarni, Mijozlarga ogohlantirishlarni tarqatish.

3.2. Mijozning majburiyatları:

3.2.1. "InfoServis" tizimida o'rnatilgan ishlash texnologiyasi va tartibiga, shuningdek, xavfsizlik rejimiga rioya qilish;

3.2.2. "InfoServis" tizimida Yo'riqnomaga qat'iy amal qilgan holda ishlash;

3.2.3. noto'g'ri formatdagi, bo'sh va Yo'riqnomaga to'g'ri kelmaydigan SMS so'rovlarni yubormaslik;

3.2.4. xavfsizlikni ta'minlash va "InfoServis" xizmati bo'yicha maxfiy axborot jo'natiladigan mobil telefon, elektron pochta qutisi, faks va boshqa qurilma hamda axborot manbaalariga ruxsatsiz kirishning oldini olish bo'yicha barcha choralarini ko'rish;

3.2.5. "InfoServis" tizimi vositasida jo'natiladigan maxfiy axborotga ruxsatsiz kirish xavfi aniqlanganda yoki paydo bo'lganida, "InfoServis" tizimining ishlashini to'xtatib turish haqidagi yozma so'rov bilan darhol Bankka murojaat qilish;

3.2.6. ro'yxatga olish ma'lumotlari (telefon raqami, elektron pochta manzili va boshq.) o'zgarganida ro'yxatga olish ma'lumotlariga tuzatish kiritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ro'yxatga olish haqidagi buyurtmanoma bilan darhol Bankka murojaat qilish;

3.2.7. Bank tomonidan "InfoServis" tizimi vositasida ko'rsatilgan xizmatlar uchun Bank Tariflarida nazarda tutilgan tartibda o'z vaqtida to'lovlarini amalga oshirish.

3.3. Tomonlar maxfiylikka rioya qilishlari va ikkinchi tomonning yozma rozilgisiz ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.4. Tomonlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

IV. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. O'z tashabbusi bilan Buyurtmanomada ko'rsatilgan telefon raqamiga va/yoki elektron pochta manziliga yangiliklarni, reklama tusidagi axborotni Mijozlarga tarqatish;

4.1.2. Shartnomalar buzilganda, tizim vositasida jo'natiladigan maxfiy axborotga ruxsatsiz kirish xavfi paydo bo'lganda, tizimdan ruxsatsiz foydalanish haqida shuhbalar paydo bo'lganda, shuningdek, Dasturiy-texnika va aloqa vositalarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq profilaktik ishlari o'tkazilganda Mijozning "InfoServis" tizimidan foydalanish imkoniyatini to'xtatib turish;

4.1.3. So'rovlardan tez-tez foydalanishga bo'lган harakatlar (bir kunda 20 martadan ko'p) aniqlanganda va tizimga ehtimoliy ruxsatsiz kirish ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan katta miqdorda noto'g'ri so'rovlari kelganida (ketma-ket ikki martadan ko'p) Mijoz tomonidan axborot olish uchun bir kunda yuboriladigan so'rovlari miqdoriga cheklov kiritish, shuningdek, Mijozning "InfoServis" tizimidan foydalanish imkoniyatini to'xtatib turish;

4.1.4. Quyidagi hollarda Shartnomani bir tomonlama bekor qilish:

- hisobraqamdagagi pul mablag'lariga ta'qiq qo'yilganda yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisobraqam bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganda;
- 2-sonli kartotekaning muddati 30 kundan oshsa;
- 30 (o'ttiz) kun mobaynida faoliyatni amalga oshirmagan va ayni vaqtda talab qilib olinguncha depozit hisobraqamida pul mablag' mavjud bo'lmaganda;
- Mijoz tomonidan shuhbali (gumonli) operatsiyalar amalga oshirilganida;

- Mijozning ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha Bank oldida 1 (bir) va undan ortiq oylar uchun qarzdorligi bo'lsa;

- Bankning ogohlantirishlariga qaramasdan, axborot olish uchun noto'g'ri shakldagi so'rovlarni yuborishni davom ettirsa;

- Mijoz Yo'riqnomani, Universal shartnomaga va ushbu Tartib shartlarini buzganda.

4.1.5. "Info Servis" tizimidan foydalanib shubhali operatsiyalar o'tkazilgan degan gumon bo'lganida, shu jumladan, "Info Servis" tizimida xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan shaxs tomonidan operatsiyani bevosita amalga oshirish jarayonini o'rganish uchun ham "Info Servis" tizimida maxfiy kalitdan foydalanish huquqi berilgan Mijozni joylashgan joyi (pochta manzili) yoki Shartnomada ko'rsatilgan manzili bo'yicha o'rganish (dasturiy majmua bo'yicha axborotni ro'yxatga olish/o'zgartirish haqidagi ariza bo'yicha);

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. Ro'yxatga olish ma'lumotlari va Yo'riqnomaga asosan axborot olish uchun so'rovlarni yuborish;

4.2.2. "Info Servis" tizimi tomonidan taqdim qilinadigan hajmda va shaklda kerakli axborotni olish;

4.2.3. Bankdan "Info Servis" tizimining ishlash texnologiyasi, qoidalari, tartibi haqida va tizimning ishlashi bilan bog'liq o'zgarishlar hamda "Info Servis" tizimi imkoniyatlari haqida ma'lumot olish.

4.3. Tomonlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

5. XIZMATLAR UCHUN TO'LOV MIQDORI VA ULARNI TO'LASH TARTIBI

5.1. "InfoServis" tizimida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lov Bank Tariflariga asosan amalga oshiriladi

5.2. Bank hisobraqamlarga "Info Servis" tizimida xizmat ko'rsatilganligi uchun vositachilik haqini Mijozlarning hisobraqamlaridan har oyning 1-sanasida akseptsiz tartibda memorial order bilan yechib oladi, bunga Mijoz qaytarib olinmaydigan va so'zsiz huquqini beradi. Bunda Tomonlar Tartibning ushbu bandi Mijozga hisobraqamlar ochishga asos bo'lgan shartnomalarga qo'shimcha kelishuv ekanligiga shartlashishdi.

5.3. Mijozning hisobraqamida vositachilik haqini to'lash uchun pul mablag'lari mavjud bo'lmanida yoki yetarli bo'lmanida, qarzdorlikning qoplanmagan qismi tegishli tartibda ijro qilinadigan to'lov talabnomasi Kartoteka-2 ga joylashtiriladi. Ushbu to'lov talabnomasi biror-bir qo'shimcha tasdiqlarsiz Mijoz tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar Shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Universal shartnomaga va ushbu Shartnomaga asosan javobgar bo'ladi.

6.2. Bank "InfoServis" tizimi orqali tegishli hajmdagi axborotni o'z vaqtida yektazish uchun javobgar bo'ladi.

6.3. Mijoz tomonidan tizimdan lozim darajada foydalanilmaganida va "InfoServis" tizimi bilan ishslash bo'yicha Yo'riqnomaga shartlari buzilganida, shuningdek, tizim vositasida jo'natilgan axborotga ruxsatsiz kirilganda, foydalanilganda, yo'qotilganda, soxtalashtirilganda, qadrsizlantirilganda, Mijoz ko'rgan zararlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

6.4. Bank ma'lumotlarni uzatishning telefon va mobil liniyasidagi profilaktik ishlari, Internet tarmog'i xizmatlarining mavjud emasligi va Bankning ixtiyorida bo'lman hamda "InfoServis"

tizimida foydalaniladigan telefon, mobil aloqa, umumiy foydalanishdagi Internet tarmog‘i va boshqa aloqa kanallari operatorlari hamda xizmat ko‘rsatuvchilari faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador bo‘lgan boshqa holatlar natijasida tizim bo‘yicha axborotni yuborishdagi kechikishlar, xatoliklar va/yoki axborotni yubora olmaganlik uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.5. Mijoz “InfoServis” tizimi bo‘yicha ma’lumotlar jo‘natiladigan axborot manbaalarining butligi, shuningdek, begona shaxslarning ularga kirishidan himoya qilish uchun javobgar bo‘ladi. Axborot manbaalaridan begona shaxslarning foydalanishi oqibatida Mijoz ko‘rgan zarar uchun barcha javobgarlik Mijozning o‘zida bo‘ladi.

6.6. Mijoz so‘rovlarning Yo‘riqnomaga asosan to‘g‘ri shakllantirilganligi uchun javobgar bo‘ladi.

7. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Shartnoma Mijoz tomonidan Buyurtmanoma berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobraqami yopilgunga qadar amal qiladi

7.2. Bank quyidagi hollarda Shartnomani bir tomonlama bekor qilish:

- Mijoz Bankning ogohlantirishlariga qaramasdan, axborot olish uchun noto‘g‘ri shakldagi so‘rovlarni yuborishni davom ettirsa;
- Mijoz Yo‘riqnomani, Universal shartnoma va ushbu Tartib shartlarini buzganda;
- Mijoz “Info Servis” tizimi bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun Bank oldida 1 (bir) va undan ortiq oy qarzdorligi bo‘lsa;
- Universal shartnomada ko‘rsatilgan boshqa hollarda.

7.2. Shartnoma Mijozning yozma arizasiga asosan istalgan vaqtda bekor qilishini mumkin. Bunda Mijoz Bankni shartnomani bekor qilish istagi haqida Shartnomani bekor qilishning taxminiy sanasidan 7 (yetti) bank ish kuni oldin ogohlantirishi shart.

7.3. Shartnoma bekor qilinganida yoki to‘xtatilganida Tomonlar o‘z majburiyatlari bo‘yicha, agar ular mavjud bo‘lsa, barcha o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish majburiyatini oladilar.

7.4. Shartnoma bekor qilinganida yoki to‘xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to‘lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

7.5. Shartnoma bilan bog‘liq nizolar Tomonlar tomonidan muzokara yo‘li bilan o‘zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo‘li bilan hal qilishning imkoniyati bo‘limgan hollarda, nizolar Universal shartnomada belgilangan tartibda hal etiladi.

7.6. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o‘rtasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Universal shartnoma bilan tartibga solinadi.

“Info Servis” tizimida xizmat ko’rsatish shartnomasiga
1-ilova

«Info servis» tizimida ishlash bo'yicha Yo'riqnomा

- Ro'yxatga olingan hisobraqamlar bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotni tegishli hisobot shaklida olish uchun +998903265555 raqamiga SMS xabar ko'rinishidagi so'rovni jo'natish lozim.
- SMS xabarning formati: X#Y#Z, bunda X,Y,Z harflari 1 dan 9 gacha bo'lган raqamlar.
 - X soni buyruq yoki harakatni belgilaydi:
 - X=0 – tizimda ishlash bo'yicha qisqacha ma'lumot haqida so'rov
 - X=1 – joriy balans so'rovi.
 - X=2 – debet aylanmalari bo'yicha ma'lumot olish so'rovi.
 - X=3 – kredit aylanmalari bo'yicha ma'lumot olish so'rovi.
 - X=5 – «Hisobraqam bo'yicha ma'lumotnoma» hisobotini elektron pochta manziliga jo'natish so'rovi.
 - Y soni hisobraqamning tizimdagи tartib raqamini belgilaydi. Hisobraqamning tartib raqamini Hisobraqamlar bo'yicha balansni olish so'rovidan bilib olish mumkin. Ushbu parametr opsiyali hisoblanadi. Ushbu parametr mavjud bo'lmasa, ma'lumot tizimda ro'yxatga olingan barcha hisobraqamlar bo'yicha taqdim qilinadi. X=1, X=2, X=3 so'rovlarda ishlatiladi.
 - Z soni debet va kredit operatsiyalari haqida ma'lumot olish so'rovlari bo'yicha saqlangan yozuvlar miqdorini belgilaydi. Ushbu parametr opsiyali hisoblanadi. Ushbu parametr mavjud bo'lmasa, odatiy ravishda oxirgi 5 ta operatsiya bo'yicha ma'lumot jo'natiladi. X=2 i X=3 so'rovlarda ishlatiladi.
- InfoServis so'rovlari tizimidan foydalanish bo'yicha namuna

SMS matni		
1	<i>Hisobot:</i>	Balans.
	<i>Mazmuni:</i>	Joriy vaqtagi raqamlangan hisobraqamlarning ro'yxati ulardagi qoldiq summalar bilan birgalikda shakllantiriladi.
	<i>Misol:</i>	1.20208000012345678001=41'386'829.06 2.20208000012345678002=1'000'000.00
1#1	<i>Hisobot:</i>	Hisobraqam saldosи.
	<i>Mazmuni:</i>	Hisobraqam saldosи shakllantiriladi. 2-parametr birinchi so'rovdagi hisobraqam raqamini ko'rsatadi. in: kun boshiga qoldiq dt: debet aylanma cd: kredit aylanma out: joriy vaqtagi qoldiq
2#1	<i>Misol:</i>	Saldo: 20208000012345678001 in:41'486'829.06 dt:1'000'000.00 cd:2'000'000.00 out:42'486'829.06
	<i>Hisobot:</i>	Debet aylanma.
	<i>Mazmuni:</i>	Debet aylanma shakllantiriladi. 2-parametr birinchi so'rovdagi hisobraqam raqamini ko'rsatadi. Odatiy ravishda ro'yxat joriy

		operatsion kun davomidagi oxirgi 5 ta operatsiya bilan chegaralangan. Agar 3-parametr qo'shilsa (masalan. 2#1#7) ro'yxat ko'rsatilgan raqam bilan chegaralanadi. 3-parametrning mumkin bo'lган maksimal belgisi = 9.
	<i>Misol:</i>	20208000012345678001: D:Uzbekiston Kh=5'000'000.00 D:Ivanov I.I.=500'000.00 D:GNI Mirzo Ul=4'000'000.00 D:Firma Golore=818'000.00 D:Firma Trans=547'000.00
3#1	<i>Hisobot:</i>	Kredit aylanma.
	<i>Mazmuni:</i>	Kredit aylanma shakllantiriladi. 2-parametr birinchi so'rovdag'i hisobraqam raqamini ko'rsatadi. Odatiy ravishda ro'yxat joriy operatsion kun davomidagi oxirgi 5 ta operatsiya bilan chegaralangan. Agar 3-parametr qo'shilsa (masalan. 2#1#7) ro'yxat ko'rsatilgan raqam bilan chegaralanadi. 3-parametrning mumkin bo'lган maksimal belgisi = 9.
	<i>Misol:</i>	20208000012345678001: C:LUGER-LEBEM=1'071'206.00 C:ABC-EXPRESS=18'000'000.00 C:ABC-EXPRESS=22'019'000.00

ATB “Kapitalbank” da yuridik shaxslar va yakka
tartibdagagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini
ko’rsatish bo'yicha Universal shartnomaga

7-ILOVA

Plastik kartalar uchun ish haqi loyihasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma

1. QO'SHIMCHA ATAMALAR VA TA'RIFLAR:

1.1. Ushbu Shartnoma maqsadlari uchun quyidagi atamalar va ta'riflar qo'llaniladi:

MBXT - Mijoz tomonidan telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda masofadan uzatiladigan (qabul qilinadigan) ko'rsatmalar asosida ko'rsatiladigan Bank xizmatlari majmui;

Plastik karta – Bank yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banki tomonidan chiqarilgan, karta saqlovchisiga kartochka hisobraqami bo'yicha operatsiyalarni ko'p marta amalga oshirish imkonini beruvchi "UZCARD EMV/HUMO/VISA" tizimining so'mdagi mikroprotsessorli plastik kartasi;

Shartnoma - usbu ish haqi loyihasiga xizmat ko'rsatish shartnomasi. Ushbu Shartnoma Bankning veb-saytida joylashtirilgan.

"Yagona filial" – ATB “Kapitalbank” “Yagona filial” chakana biznes filiali (MFO 01158; IFUK kodi 64190; STIR 207275139).

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Shartnoma Mijoz tomonidan berilgan ariza yoki qo'shilish to'g'risidagi ariza (1-ilova) asosida Tomonlar uchun majburiy bo'ladi (kuchga kiradi), unga ko'ra Bank Mijoz uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, shuningdek, pensiya, kompensatsiya va boshqa ijtimoiy to'lovlarni Bank tomonidan Mijozning xodimlari uchun chiqarilgan plastik kartalarga o'tkazish tizimini (keyingi o'rinnarda "ish haqi loyihasi" deb yuritiladi) joriy qiladi va ish haqini o'tkazish uchun tranzit hisobraqami ochadi.

Bunda, Bankning ixtiyoriga ko'ra, ish haqi loyihasiga xizmat ko'rsatish, shu jumladan hisobraqam ochish bo'yicha majburiyatlar to'liq "Yagona filial"ga yuklatilishi mumkin. Ushbu holda, Mijoz Bankka bergen arizasiga qo'shimcha ravishda, ish haqini o'tkazish uchun tranzit hisobraqamini ochish to'g'risida "Yagona filial" boshqaruvchisi nomiga alohida ariza bilan murojaat etadi, bu esa hisobraqam ochish to'g'risidagi shartnomani tuzish hisoblanadi.

2.2. Ushbu Shartnoma, Universal Shartnoma, Tariflar, shuningdek belgilangan tartibda to'ldirilgan Ro'yxat birgalikda Mijoz va Bank o'rtasida ish haqi loyihasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha tuzilgan Shartnomani (keyingi o'rinnarda "Shartnoma" deb yuritiladi) tashkil etadi. Bunday holda, Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma doirasida berilgan har qanday ariza Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.3. Mijoz Ro'yxatdagi barcha o'zgarishlar, shu jumladan ishdan bo'shatilgan yoki yangi xodim (ishchi)ni ishga qabul qilingan taqdirda, Bankni yoki "Yagona filial"ni xabardor qilishi lozim.

2.4. Ish haqi loyihasida ishtiroy etuvchi Mijozning har bir xodimi uchun Bank yoki "Yagona filial" tomonidan ish haqini o'tkazish maqsadida Bank yoki "Yagona filial" qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan hujjatlar asosida karta hisobraqami (keyingi o'rinnarda "karta hisobraqami" deb yuritiladi) ochadi hamda plastik kartalarni chiqaradi. Plastik karta Mijozning ish haqi loyihasida ishtiroy etuvchi xodimiga jismoniy shaxsning UZCARD EMV/HUMO/VISA so'm plastik kartasiga xizmat ko'rsatish to'g'risida u bilan tuzilgan alohida Shartnoma (keyingi o'rinnarda "Jismoniy shaxs bilan tuzilgan shartnoma" deb yuritiladi) asosida beriladi.

2.5. Har safar ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, shuningdek, pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlari xodimiga o'tkazilayotganda Bank yoki Yagona filialga Mijoz rahbar va bosh buxgalter (agar mavjud bo'lsa) tomonidan imzolangan, Mijozning muhri (agar mavjud bo'lsa) bilan tasdiqlangan ish haqi qaydnomasini elektron shakli bilan birga taqdim etadi. Mijozga MBXT orqali xizmat ko'rsatilayotgan taqdirda, qaydnoma ERI bilan tasdiqlangan elektron shaklda (keyingi o'rinnarda "elektron qaydnoma" deb yuritiladi) yuborilishi mumkin. Bunday holda, elektron qaydnoma rahbar, bosh buxgalter (mavjud bo'lsa) imzolari va mijozning muhri (mavjud bo'lsa) bilan tasdiqlangan qog'oz shaklidagi qaydnomaga tengdir. Qaydnomalar Bank yoki Yagona filial tomonidan belgilangan shaklda tuziladi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bank yoki Yagona filial quyidagilarga majburdir:

3.1.1. Taqdim etilgan Ro‘yxat bo‘yicha Mijozning ish haqi loyihasida ishtirok etayotgan har bir xodimiga karta hisobraqamini ochish to‘g‘risidagi ariza, karta chiqarish to‘g‘risidagi ariza, shaxsni tasdiqllovchi hujjat va alohida tuzilgan Shartnoma asosida karta hisobraqamini ochish va Plastik kartasini berish.

3.1.2. Mijozning arizasiga asosan, mijozning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni, shuningdek, pensiya, kompensatsiya va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni o‘tkazish uchun tranzit hisobraqamini ochish;

3.1.3. Tranzit hisobraqamiga pul mablag‘lari kelib tushganidan va Mijoz tomonidan to‘g‘ri to‘ldirilgan qaydnama taqdim etilganidan keyin 2 (ikki) bank kuni ichida ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi Mijoz xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar shuningdek, mazkur qaydnomada ko‘rsatilgan pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlar summalarini karta hisobraqamlariga o‘tkazish.

3.2. Mijoz quyidagilarga majbur:

3.2.1. Rahbar va bosh buxgalter (agar mavjud bo‘lsa) tomonidan imzolangan va mijozning muhri (agar mavjud bo‘lsa) bilan tasdiqlangan ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi Mijoz xodimlari to‘g‘risidagi majburiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan Ro‘yxatni qog‘oz yoki elektron shaklda taqdim etish. Mijozga MBXT tizimi orqali xizmat ko‘rsatilayotgan taqdirda, Ro‘yxat elektron shaklda, Bank tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilishi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan bo‘lishi mumkin;

3.2.2. Ro‘yxat o‘zgartirilgan kundan e‘tiboran 1 (bir) bank kuni ichida Bankni yoki “Yagona filial”ni o‘zgartirishlar to‘g‘risida xabardor qilish;

3.2.3. ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni, shuningdek pensiya, kompensatsiya va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni tranzit hisobraqamiga o‘tkazish.

3.2.4. tranzit hisobraqamiga pul mablag‘lari ko‘chirilgan kuni, ushbu Shartnomaning 2.5-bandga muvofiq qaydnomani taqdim etish;

3.2.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Mijoz xodimlarini ushbu ish haqi loyihasi doirasida chiqarilgan Plastik kartalarni Bank yoki “Yagona filial”ga qaytarish zarurligi to‘g‘risida xabardor qilish.

3.3. Komissiya to‘lovi to‘lanmagan taqdirda, Mijoz o‘zining qaytarib bo‘lmaydigan va so‘zsiz roziligini bildiradigan, Mijozning buyrug‘isiz Hisobraqamidan pul mablag‘larini akseptsiz tarzda Bank memorial order asosida yechib olishga haqli. Mijozning hisobraqamida komissiya to‘lovin uchun mablag‘ mavjud bo‘lmagan yoki yetarli bo‘lmagan taqdirda, qarzning to‘lanmagan qismiga belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan to‘lov talabnomasi Mijozning 2-sonli kartotekasiga joylashtiriladi. Ushbu to‘lov talabnomasi Mijoz tomonidan biron bir qo‘srimcha tasdiqlarsiz qabul qilingan hisoblanadi.

3.4. Tomonlar maxfiylikni saqlashi va boshqa Tomonning yozma roziligesiz axborotni tarqatmasliklari shart, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.5. Tomonlar zimmasida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq mijozdan komissiya undirish;

4.1.2. Mijoz xodimlarining karta hisobraqamiga ish haqini o‘tkazmaslik, agar:

- Mijoz ish haqi qaydnomasini taqdim etmagan bo‘lsa;

- Mijoz tomonidan taqdim etilgan ish haqi qaydnomasida xatolar yoki noaniqliklar mayjud bo‘lsa;

4.1.3. Agar ushbu Shartnomaning 4.1.2-bandi buzilgan bo‘lsa, u holda 3 bank ish kuni ichida Mijoz xodimlarining karta hisobraqamlariga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan pul mablag‘larini, ular o‘tkazilgan talab qilib olinguncha depozit hisobraqamiga qaytarish.;

4.1.4. Ushbu Shartnomaning 4.1.2-bandida ko‘rsatilgan hollarda, pul mablag‘larini o‘tkazish kunida (agar bu kun kalender oyidagi so‘nggi bank ish kuni bo‘lsa) Mijozning pul mablag‘lari jo‘natilgan depozit hisobraqamiga qaytarish.

4.1.5. Mijozning ish haqi loyihasida ishtirok etayotgan xodimining Plastik kartalardan foydalanish bo'yicha Bankning veb-saytida joylashtirilgan Yo'riqnomalariga rivoja qilmagan taqdirda, uning Plastik kartasiga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish.

4.2. **Mijoz** ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi xodimlarining karta hisobraqamlariga ish haqi o'tkazilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani Bankdan yozma ravishda talab qilishga **haqli**.

4.3. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlar Shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Universal shartnomaga va ushbu Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

5.2. Mijoz Mijoz tomonidan ish haqi va ularga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, ish haqi loyihasida ishtirok etuvchi Mijoz xodimlarining karta hisobraqamlariga pensiya, kompensatsiya va boshqa ijtimoiy to'lovlar o'tkazilishining qonuniyligi uchun javobgar bo'ladi.

6. YAKUNIY QOIDALAR

6.1. Shartnomma Ariza va Ro'yxat Bankka topshirilgandan so'ng kuchga kiradi hamda Bankka hisobraqamni yopish to'g'risidagi arizaga asosan tomonlardan biri uni bekor qilish istagini bildirmagunga qadar cheklanmagan muddatga amal qiladi.

6.2. Ushbu Shartnomma quyidagicha bekor qilinishi yoki tugatilishi mumkin:

- Universal shartnomada va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan bir tomonlama tartibda;
- Tomonlardan birining tashabbusi bilan, mijozning Shartnomma bo'yicha barcha majburiyatlarini bajargan va Bank oldidagi qarzi bo'limgan taqdirda, shartnomani bekor qilishning kutilayotgan sanasidan 30 (o'ttiz) bank kuni oldin boshqa tomon yozma ravishda xabardor qilingan holda.

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdag
tadbirkorlar uchun kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish
to‘g‘risida bitimga
8-ILOVA**

**Milliy valyutadagi plastik kartalar egasi bo‘lgan Mijozlarga NKM va/yoki POS-terminal orqali xizmat
ko‘rsatish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMALAR VA TA’RIFLAR

1.1. Ushbu Tartib doirasida quyidagi atamalar va ta’riflardan foydalaniladi:

Karta – Bank yoki O‘zbekiston Respublikasi hududidagi boshqa tijorat banki tomonidan milliy valyutada chiqarilgan UZCARD EMV, HUMO, VISA International va MasterCard tizimidagi mikroprotessorli plastik karta bo‘lib, karta egasiga Karta hisob raqami orqali bir necha bor tranzaktsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi;

UZCARD EMV – asosiy elementi “EMV” texnologik platformasidagi mikroprotessorli plastik kartalar bo‘lgan, real vaqt rejimida tranzaktsiyalar amalga oshiriladigan mahalliy naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi;

VISA International – turli to‘lov mahsulotlarini yagona savdo belgisi ostida va yagona standartlarga muvofiq chiqaruvchi hamda ularga xizmat ko‘rsatuvchi moliya tashkilotlari va institutlarini birlashtiruvchi xalqaro Assotsiatsiya;

MasterCard – «MasterCard» yagona savdo belgisi ostida Kartochkalar chiqaruvchi va ularga xizmat ko‘rsatuvchi bank va moliya institutlarini birlashtiruvchi xalqaro to‘lov assotsiatsiyasi;

Milliy banklararo protsessing markazi (MBPM) – “HUMO” to‘lov tizimi doirasida bank kartalarining birlamchi emissiyasini, avtorizatsiyasini, tranzaktsiyalarga ishlov berishni va kliringini, banklar o‘rtasida axborot almashuvini hamda bajarilgan banklararo tranzaktsiyalar bo‘yicha banklarga tasdiqlash uchun axborot yetkazib berishni ta’minlovchi tashkilot;

Xalqaro to‘lov tizimi (XTT) – turli davlatlardan bo‘lgan ishtirokchilar o‘rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta’minlovchi tashkilot. XTT namunalariга «Visa», «Mastercard» va boshqalar kiradi;

Emitent – bank kartalarini emissiya qiluvchi, ushbu kartalar egalari va ekvayerlar oldida bank kartalari orqali hisob-kitoblar bo‘yicha ularning huquqlarini amalga oshirish uchun o‘z nomidan majburiyatlarni zimmasiga oluvchi bank;

Ekvayring – bank kartalaridan foydalangan holda tovarlar (ishlar, xizmatlar va boshqalar) sotuvchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek, bank kartasi egasiga naqd pul mablag‘larini bevosita kassa orqali yoki bankomat orqali berish jarayoni.

Ekvayer – ekvayringni amalga oshiruvchi rezident bank;

Korxona – Bank bilan taqdim etilgan tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha shartnomaga tuzgan savdo-xizmat ko‘rsatish korxonasi, yuridik shaxs (mulkchilik shaklidan qat’i nazar) va/yoki tadbirkorlik subyekti;

Karta hisobraqami – Karta bilan bog‘liq bank hisobraqami bo‘lib, undagi pul mablag‘lari Kartadan foydalanish orqali tasarruf qilinadi;

Karta egasi – Kartani egasi yoki egasi tomonidan vakolat berilgan, emitent bilan tuzilgan shartnomaga asosida Kartadan foydalanadigan va uni to‘lov vositasi sifatida tovarlar, xizmatlar va ishlar uchun taqdim etadigan shaxs;

YO‘RPM – “UZCARD” to‘lov tizimi doirasida bank kartalarining birlamchi emissiyasi, avtorizatsiyasi, tranzaktsiyalarga ishlob berish va ularning kliringini, banklar o‘rtasida axborot almashinuvni hamda amalga oshirilgan banklararo tranzaktsiyalar haqida banklarga ularni tasdiqlash uchun axborot yetkazib berishni ta’minlovchi Yagona umumrespublika protsessing markazi;

Protsessing markazi – “Kapitalbank” ATB kartalari bo‘yicha operatsiyalarga elektron ishlov beruvchi markaz bo‘lib, u avtorizatsiya, tranzaktsiyalarni umumlashtirish va ishlov berish, mablag‘larni karta

hisobraqamiga va/yoki kartaning o‘ziga qaytarish bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek boshqa moliyaviy ma‘lumotlarni taqdim etish uchun zarur bo‘lgan uskunalar va dasturiy ta’minot bilan jihozlangan bo‘ladi.

Bank jihozlar – Bank tomonidan Karta egasiga xizmat ko‘rsatish uchun Mijozga taqdim etiladigan texnik vositalar. Bank jihozlariga NKM va/yoki POS-terminal (quvvat manbai adapteri va quvvat kabeli bilan), PIN-kod kiritish uchun mijoz klaviaturTsni kiradi. Bank ushbu bilan ta’minlayotgan Bank jihozlar uchinchi shaxslarning har qanday da’volari va talablaridan xoli ekanini, u nizoda yoki xatlov ostida emasligini kafolatlaydi.

NKM va/yoki POS-terminal – mijozning tovar/ish/xizmatlari bo‘yicha kartalar orqali to‘lovlarni qabul qilish hamda bajarilgan tranzaksiyalar bo‘yicha YO‘RPM yoki XTT bilan real vaqt rejimida Sliplar (cheklar)/Cheklar shakllantirish uchun mo‘ljallangan elektron qurilma.

Slip – NKM va/yoki POS-terminal tomonidan shakllantiriladigan kvitansiya bo‘lib, u karta orqali amalga oshirilgan Tranzaksiyani tasdiqlaydi hamda tranzaksiya summasi, turi, amalga oshirilgan sanasi, shuningdek kartani va ushbu Slipni shakllantirgan NKM va/yoki POS-terminalni aniqlash imkonini beruvchi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Har bir amalga oshirilgan Tranzaksiya bo‘yicha 2 nusxadagi Slip beriladi. Ulardan biri Karta egasiga topshiriladi, ikkinchi nusxasi esa Mijozda saqlanishi lozim;

Chek – Karta egalari bilan hisob-kitob qilish jarayonida Tranzaksiyaning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi savdo kvitansiyasi;

Tranzaksiya – NKM va/yoki POS-terminal orqali tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun karta orqali amalga oshiriladigan to‘lov. Tranzaksiyani tasdiqlash Karta egasi tomonidan PIN-kod yordamida amalga oshiriladi.

PIN-kod – kartahisobdagi pul mablag‘larini tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hamda karta/karta hisobraqamida saqlanayotgan ma‘lumotlarga uchinchi shaxslar kirishini chekllovchi shaxsiy identifikatsiya raqami. PIN-kod maxfiy axborot hisoblanadi va sir saqlanishi lozim. PIN-kodning maxfiyligini saqlash uchun javobgarlik Karta egasiga yuklatiladi;

Yakunlarni solishtirish – bu onlayn operatsiya bo‘lib, uning natijasida NKM va/yoki POS-terminalda mavjud bo‘lgan barcha Tranzaksiyalar, shuningdek Reversal (bekor qilish) operatsiyalari YO‘RPM yoki XTTga ishlov berishi учун uzatiladi. “Yakunlarni solishtirish” operatsiyasi NKM va/yoki POS-terminalda amalga oshirilgan barcha Tranzaksiyalarni YO‘RPM yoki XTT bilan solishtiradi. Ushbu operatsiya yordamida oldingi “Yakunlarni solishtirish” operatsiyasiga bo‘lgan Tranzaksiyalar soni va summasini ko‘rish mumkin;

To‘lovni qaytarish – Karta egasi tomonidan Kartadan foydalangan holda xarid qilingan tovarlar/ishlar/xizmatlardan voz kechilishi sababli Mijoz tomonidan ma‘qullangan va Bank belgilagan tartibda karta egasining karta hisobraqamiga qayta o‘tkazish uchun amalga oshiriladigan pul mablag‘larini qaytarish. To‘lovni qaytarish naqd shaklda amalga oshirilishi mumkin emas.

Chargeback (Nizo) – Karta egasi tomonidan ilgari amalga oshirilgan Tranzaksiyaning noqonuniyligi sababli to‘lovdan bosh tortilgan holatda, “VISA International” qoidalari muvofiq Emitent tomonidan Ekvayerga nisbatan rasmiylashtiriladigan bahsli Tranzaksiya summasidir. Bunday holatda “Visa” Korxona hisobvarag‘ini debetlaydi.

Reversal – aloqa uzelishi (kommunikatsiya xatosi) sodir bo‘lganda, NKM va/yoki POS-terminal orqali karta bo‘yicha amalga oshirilgan tranzaksiyani bekor qilish. Asl tranzaksiya amalga oshirilganida slipda mazkur tranzaksiyani bajarishda yuzaga kelgan xatolik haqida ma‘lumot ko‘rsatiladi;

Stop-list – Karta egasi tomonidan rasmiy murojaat qilinishi (yo‘qotish, o‘g‘irlilik va hokazo holatlar) natijasida Bank tomonidan ushbu kartalar bo‘yicha tranzaksiyalarni amalga oshirish taqiqlanadigan Kartalar ro‘yxat;

Bank yo‘riqnomalari – Karta egasiga xizmat ko‘rsatish tartibi va qoidalari, Mijozning Bank jihozlaridan foydalanishi hamda Bank bilan ishslash jarayonlarini tavsiflovchi hujjatlar. Bank yo‘riqnomalariga riousha qilish Tomonlar uchun majburiy hisoblanadi. Bank yo‘riqnomalari Bankning Rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

1.2. Ushbu Tartibda qo‘llanilgan boshqa atama va ta’riflar Bitimda belgilangan ma’noga ega.

1.3. Ushbu Tartibda va/yoki Yo‘riqnomada, va/yoki Bitimda, va/yoki Bankning boshqa hujjatlarida aniqlanmagan atama va ta’riflar “Xalqaro to‘lov tizimi” (XTT) hujjatlarida, O‘zbekiston Respublikasi amaldagi

qonunchiligidagi, Tomonlar o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarda belgilangan ma’noda, shuningdek, ularning bevosita lug‘aviy ma’nosiga va ibora kontekstidan kelib chiqqan holda qo‘llaniladi.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Tartib Mijozning to‘ldirilgan Mijoz Anketasi (1-ilova) asosida kuchga kiradi va Tomonlar uchun majburiy hisoblanadi. Mazkur Anketaga muvofiq, Bank milliy valyutada UZCARD EMV, HUMO, VISA va MasterCard kartalari egalariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Mijozga xizmatlar ko‘rsatadi.

2.2. Ushbu Tartib, Bitim, Bank Tariflari, shuningdek Mijoz tomonidan belgilangan tartibda to‘ldirilgan va imzolangan Ariza birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida milliy valyutada UZCARD EMV, HUMO, VISA va MasterCard plastik kartalari egalariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan Shartnoma (keyingi o‘rinlarda – «Shartnoma») hisoblanadi.

2.3. Mijoz Karta egalaridan tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to‘lovlarni Kartalar orqali qabul qiladi, shuning uchun Bank Tranzaksiyalar bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan Bank jihozlari bilan Mijozni ta’minlaydi.

2.4. Mijoz har kuni yakunlarni solishtirishni amalga oshiradi va Sliplarni rasmiylashtiradi.

2.5. Bank jihozlari Bank mulki hisoblanadi va Shartnoma amal qilish muddati davomida Mijozga vaqtinchalik bepul egalik qilish va foydalanish uchun taqdim etiladi. Shartnoma muddati tugaganida yoki bekor qilinganda, shuningdek nosozlik yoki ishlamaslik holatida almashtirilganda, Bank jihozlari u qanday holatda topshirilgan bo‘lsa, shu holatda (jismoniy eskirish holati hisobga olingan holda) Bankka 1 (bir) bank kuni ichida qaytarilishi shart.

2.6. Shartnoma bo‘yicha barcha hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so‘mda amalga oshiriladi.

2.7. Mijoz tomonidan topshirilgan Ariza, Mijoz Bank Yo‘riqnomalari bilan tanishganini va ularga roziligini tasdiqlaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bankning majburiyatları:

3.1.1. Ariza topshirilgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida, Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (2-ilova) asosida, Bank Uskunasini karta Egalariga xizmat ko‘rsatish maqsadida Mijozga vaqtinchalik egalik qilish yoki foydalanish uchun topshirishi shart. ABT va PM ishlashida texnik nosozliklar yuzaga kelganda, Bank Uskunasini vaqtinchalik egalik qilish yoki foydalanish uchun Mijozga topshirish muddati ABT va PM ishlashidagi nosozliklar bartaraf etilgunga qadar uzaytirilishi mumkin.

3.1.2. Bank Uskunasi o‘rnatilganida, shuningdek, Bank Uskunasi bilan ishslash bo‘yicha ilgari tanishtirilgan xodim(lar) ishdan bo‘shatilgan taqdirda, Mijozning yozma murojaatiga asosan, Bank Mijozning xodim(lar)ini Bank Uskunasidan foydalanish qoidalari bilan tanishtirishi shart;

3.1.3. Bank, YO‘RPMdan Kartalar bo‘yicha Tranzaksiyalarini o‘rganidan keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan holda hamda XTTdan Kartalar bo‘yicha Tranzaksiyalarini o‘rganidan keyin besh bank ish kunidan kechiktirmagan holda, mazkur Tartibning 1-ilovasida ko‘rsatilgan Mijoz hisob raqamiga barcha qayta ishlangan Tranzaksiyalar summasini o‘tkazib berishi shart;

3.1.4. Bank Mijozning yozma arizasiga asosan ishlov berilgan tranzaksiyalar bo‘yicha hisobdan ko‘chirma taqdim etishi shart.

3.2. Mijozning majburiyatları:

3.2.1. Bankning Uskunasini qabul qilish, NKM va/yoki POS-terminalni o‘rnatish uchun joy taqdim etish hamda topshirilgan Bank Uskunasining saqlanishi va butligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;

3.2.2. Bank Uskunasini Butun Shartnoma muddati davomida ishlaydigan holatda saqlash;

3.2.3. Bank Uskunasini Uchinchi shaxslarga topshirmslik;

3.2.4. Qabul qilib olingan va foydalanishga topshirilgan Bank Uskunasining tasodifiy yo‘qolishi yoki tasodifiy shikastlanishi xavfiga, u Qabul qilish-topshirish Dalolatnomasiga muvofiq topshirilgan paytdan boshlab, javobgar bo‘lish;

3.2.5. Stop-varaqga kiritilmagan kartalar orqali tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to‘lovlarni qabul qilish;

3.2.6. Har kuni yakunni solishtirish.

3.2.7. Bankning amaldagi tariflarida ko‘rsatilgan komissiyalar bo‘yicha to‘lovlarni mazkur Tartibning 5.1. yoki 5.2.-bandlariga muvofiq kafolatlash va amalga oshirish;

3.2.8. Bankning amaldagi tariflariga muvofiq, mazkur Tartibning 5.1. yoki 5.2.-bandlarida ko‘rsatilgan komissiyalarini muvaffaqiyatli ushlab qolishni ta’minlash uchun asosiy / ikkilamchi hisobvaraqa qoldiqni kafolatlash;

3.2.9. Tovar/xizmat xaridining to‘lovini bitta tranzaksiya orqali amalga oshirish. Tovar/xizmat xaridining to‘lov summasini bir necha Chekka bo‘lib to‘lash taqiplanadi.

3.2.10. Tranzaksiya amalga oshirilayotganda Bankning PM orqali Avtorizatsiya kodini olish. Avtorizatsiya kodi Bank orqali olingan deb hisoblanadi, agar u bir vaqtning o‘zida Bank PM kodlari kompyuter reyestrlarida, XTT avtorizatsiya markazida va Chekda mavjud bo‘lsa. Avtorizatsiyadan o‘tish rad etilgan taqdirda, Bank uning sababini Mijozga ma’lum qilmaydi.

3.2.11. Bank tomonidan taqdim etilgan reklama belgilari yoki boshqa materiallarni o‘z binolarida tegishli tarzda joylashtirish, shuningdek, Bank tomonidan ma’qullangan nomlar yoki tasvirlardan faqat Mijoz tomonidan kartalar to‘lov vositasi sifatida qabul qilinishini ko‘rsatish maqsadida foydalanish;

3.2.12. Bank bilan tuzilgan Shartnomalariga taalluqli har qanday reklama materiallarini Bank bilan kelishish va yozma ravishda rozilik olish;

3.2.13. Sliplar/Cheklerning dublikatlarini ular tuzilgan kundan boshlab 1 (bir) yil davomida saqlash, shuningdek, Bankning birinchi talabi bilan ularni 3 (uch) bank kuni ichida taqdim etish.

3.2.14. Agar Karta NKM va/yoki POS-terminal displayida chiqarilgan tegishli xabar asosida Stop-varaqga kiritilgan bo‘lsa, tovar/ish/xizmatlar uchun to‘lov qilish maqsadida Karta taqdim etilganida uni mavjud qonuniy vositalar bilan ushlab qolish va bu haqida Bankni xabardor qilish;

3.2.15. Sliplarni NKM va/yoki POS-terminal orqali chop etishda faqat Bank tomonidan ma’qullangan iste’mol materiallaridan foydalanish;

3.2.16. Karta Egasiga Slip/Chek nusxasini taqdim etish;

3.2.17. Agar bir oy davomida Mijoz tomonidan Karta Egalariga xizmat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, Bank Uskunasini Bankka qaytarish;

3.2.18. Uskuna qaytarilayotganda, agar u ulab qo‘yilgan bo‘lsa, fiskal modulni o‘chirish majburiyatini o‘z zimmasiga olish;

3.2.19. Bankning birinchi yozma talabi asosida Uskunani 3 bank kuni ichida Bankka qaytarish;

3.2.20. Tranzaksiyalarni faqat Bank tomonidan topshirilgan Obyekt orqali amalga oshirish;

3.2.21. Tegishli bildirishnomalaridan so‘ng 1 (bir) bank kuni ichida, ushbu Tartib shartlariga muvofiq, Bank Mijozdan qaytarib olish huquqiga ega bo‘lgan pul mablag‘i summasini Bankka qaytarish.

3.2.22. Bank tomonidan xabarnoma olingan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida YO‘RPM, MBPM, XTT, “Visa International” yoki MasterCard tomonidan tan olinmagan yoki Mijoz tomonidan noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan Sliplarga/Cheklerga tegishli har qanday Tranzaksiya bo‘yicha Bank tomonidan undirilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larini Bankka qaytarish;

3.2.23. Bankning Yo‘riqnomasi bilan belgilangan barcha ko‘rsatmalarni bajarish;

3.2.24. Bankni quyidagi holatlardan kelib chiqadigan yo‘qotishlar, xarajatlar, jarimalar, to‘lovlar va majburiylardan himoya qilish:

a) Shartnomalar buzilishi natijasida Bankda qo‘shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi;

b) Bank tomonidan Mijozga Shartnomaga muvofiq topshirilgan Uskuna, reklama va boshqa vositalardan noto‘g‘ri foydalanish;

3.2.25. Bankdan yozma so‘rovnama olingan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida Tranzaksiyalarni bo‘yicha tergov o‘tkazish va Karta Egasi tomonidan Bankka nisbatan qo‘yilgan da’voni rad etish maqsadida Mijoz ixtiyorida mavjud bo‘lgan barcha hujjatlarni Bankka taqdim etish;

3.2.26. Mijozning manzili va bank rekvizitlariga oid barcha o‘zgarishlar haqida zudlik bilan yozma ravishda Bankka xabar berish.

3.2.27. Shartnomalar muddati tugagach yoki u muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, 1 (bir) bank kuni ichida Bankning Uskunasini butunligi, saqlanganligi va to‘liq jihozlangan holatda, Uskunani topshirish-qabul

qilish dalolatnomasiga muvofiq ravishda Bankka qaytarish. Bank uskunasi topshirilganini tasdiqlovchi hujjat sifatida Uskunani topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuziladi. Uskunani topshirish-qabul qilish dalolatnomasining shakli ushbu Tartibning 5-ilovasida keltirilgan.

3.2.28. Sharhnomaga muvofiq Qaytarib beriladigan to‘lovlar bo‘yicha barcha summalarini Bankka 5 bank kuni ichida to‘lash.

3.2.29. Bank Uskunasi yo‘qolgan (o‘g‘irlangan va h.k.), nobud bo‘lgan yoki shikastlangan taqdirda, amaldagi Tariflarga muvofiq, rad etib bo‘lmaydigan tartibda jarima summasini to‘lash.

3.2.30. Bank belgilagan amaldagi Tariflarga muvofiq komissiya mukofotlari va jarimalarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda to‘lash.

3.2.31. Mijozning savdo nuqtasida rejalashtirilgan tadbirlar (binoni ta‘mirlash, inventarizatsiya, qayta hisob-kitob, vakolatli davlat organlari tomonidan tekshiruv va h.k.) haqida, agar ular Kartalar bo‘yicha Tranzaksiyalarni 1 oydan ortiq amalga oshirish imkonini bermasa, Bankni oldindan yozma ravishda xabardor qilish.

3.2.32. Sharhnomada doirasida qo‘llaniladigan Bank Tariflari, Yo‘riqnomalari va boshqa hujjatlardagi o‘zgarishlar haqida yangilangan ma’lumotlarni olish maqsadida muntazam ravishda Bank Veb-saytiga kirib borish.

3.2.33. Bank tomonidan taqdim etilgan NKM va/yoki POS-terminaldan foydalangan holda Mijozda amalga oshirilgan shubhali (gumonli) operatsiyalar aniqlangan taqdirda, Bank so‘rovi bo‘yicha, operatsiyaning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish.

3.2.34. Mijoz Anketasiga (1-ilova) ishonchli ma’lumotlarni kiritish.

3.3. Tomonlar maxfiylikni saqlashlari va boshqa tomonning yozma rozilgisiz ma’lumotlarni tarqatmasliklari shart. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan holatlardan mustasno.

3.4. Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Sharhnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

IV. 4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. Quyidagi holatlarda Sharhnomaning amal qilishini bir tomonlama bekor qilish (uni to‘liq bajarishdan voz kechish) va Mijozga topshirilgan Uskunani qaytarib olish:

- ushbu Tartibning 3.2. va 4.3.-bandlari buzilgan taqdirda, shuningdek Mijoz tomonidan bir oy davomida Karta Egalariga xizmat ko‘rsatilmagan holatda;
- Bank Uskunasidan Sharhnomasi yoki uning mo‘ljalidan tashqari maqsadlarda foydalanilgan bo‘lsa;
- Uskunaning soz holatini ta‘minlash yoki unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlar bajarmagan holatda;
- Uskunaning holatini jiddiy darajada yomonlashtirgan taqdirda;
- Bank tomonidan Bankning NKM va/yoki POS-terminali orqali jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirish maqsadida tranzaksiyalar amalga oshirilganiga oid asosli gumon aniqlangan kunda;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan holatlarda Mijozning hisob raqamidagi mablag‘lar arrestga olingan yoki hisobdagisi operatsiyalar to‘xtatilgan bo‘lsa;
- Sharhnomasi va ushbu Tartibda nazarda tutilgan boshqa holatlardan yuzaga kelgan taqdirda.

4.1.2. Bank tomonidan NKM va/yoki POS-terminal orqali shubhali (gumonli) tranzaksiyalar amalga oshirilganligi aniqlanganida, Mijoz tomonidan ushbu operatsiyalar qonuniyligi haqida yozma tushuntirish berilmaguncha Sharhnomasi amalini vaqtincha to‘xtatish va NKM/POS-terminalni qaytarib olish.

4.1.3. Quyidagi hollarda tranzaksiya bo‘yicha Mijozga pul mablag‘larini o‘tkazishni to‘xtatib turish:

- Tranzaksiya bo‘yicha ma’lumotlar noto‘g‘ri shakllantirilgan bo‘lsa, Bank Uskunasidan foydalanish qoidalari buzilganligi sababli;
- Karta Egasi tranzaksiya yuzasidan da‘vo kiritgan va u O‘zbekiston Respublikasi sud organlari tomonidan qanoatlantirilgan bo‘lsa;
- Mijoz yuridik shaxs maqomini o‘zgartirish yoki tugatish jarayonida bo‘lsa (mablag‘lar likvidatsiya komissiyasi yoki vakolatli organ qarorigacha ushlab turiladi);
- Mijoz ushbu Tartibning 3.2.7. yoki 3.2.8.-bandlari belgilangan majburiyatlarini bajarmasa.

4.1.4. Agar tranzaksiya noto‘g‘ri shakllantirilgan bo‘lsa, Bank mazkur tranzaksiya bo‘yicha mablag‘larni o‘tkazmaslik va ishlov berish xarajatlarini Mijoz zimmasiga yuklash huquqiga ega.

4.1.5. Oldindan o'tkazilgan tranzaksiya bo'yicha Reversal summasi miqdorida mablag'ni akseptsiz tartibda qayta ishlovga yuborilgan tranzaksiyalar summasidan, Mijozning asosiy yoki qo'shimcha talab qilib olinguncha hisob raqamidan ushlab qolish.

4.1.6. o'z Yo'riqnomalarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqiga ega.

4.1.7. Bank Tariflariga muvofiq Mijozdan komissiyalarini undirish.

4.1.8. quyidagi hollarda Bank Tariflariga muvofiq Mijozdan jarima summasini undirish:

- Mijoz tomonidan Bank Uskunasining yo'qotilishi (o'g'irlanishi va h.k.);
- Uskunaning nosozlik holatiga kelib qolishi yoki tamoman yaroqsiz bo'lib qolishi.

Yaroqsiz holat Bankning servis xizmatlari tomonidan ekspertiza asosida aniqlanadi va tegishli xulosa bilan tasdiqlanadi. Ekspertiza xarajatlarini Mijoz o'zi qoplaydi. Uskuna nosozligi yoki yo'qotilishi Bank tomonidan belgilangan 3 va 4-ilovadagi dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

4.1.9. Bank Mijoz faoliyatini va Karta Egalariga xizmat ko'rsatish faolligini, Mijoz joylashgan manzil (pochta, yuridik manzil) bo'yicha tekshirish va kuzatish orqali qonuniy asosda shuhbali (g'umoni) operatsiyalarining oldini olish yoki aniqlash maqsadida monitoring o'tkazish huquqiga ega.

4.1.10. Bank Mijoz taqdim etgan tranzaksiya bo'yicha to'lovni ushlab qolish yoki agar to'lov amalga oshirilgan bo'lsa, quyidagi holatlarda ushbu to'lovni qaytarib olish:

- Tranzaksiya bo'yicha ma'lumotlar Shartnoma va Instruktsiya talablarini buzgan holda taqdim etilgan bo'lsa;
- Kartani Egasi ushbu tranzaksiya yuzasidan da'vo kiritgan va bu da'vo YO'RPM, MBPM, XTT, "Visa International", "MasterCard" va/yoki O'zbekiston Respublikasining vakolatli sud organlari tomonidan qanoatlantirilgan bo'lsa;
- Mijoz tugatish jarayonida bo'lsa yoki ma'muriy tartibda qayta tasarruf etilsa — ushbu holatda to'lovlar huquqiy voris aniqlanguncha vakolatli organlar yoki likvidatsiya komissiyasi qarorigacha ushlab qolinadi.

4.1.11. Reversal, Chargeback (Disput), Credit Voucher shaklidagi qaytarib beriladigan to'lovlar bo'yicha mablag'larni Mijozning asosiy/ikkilamchi talab qilib olinguncha hisob raqamidan akseptsiz tartibda undirish.

4.1.12. agar Cheklar noto'g'ri to'ldirilgan bo'lsa yoki Shartnoma talablariga zid bo'lsa, Mijoz tomonidan taqdim etilgan Cheklarni qabul qilmaslik.

4.1.13. Bank amaldagi qonunchilik, ushbu Qoidalar, Yo'riqnomalar va xalqaro to'lov tizimlari — "Visa", "MasterCard", hamda milliy to'lov tizimlari qoidalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega. Shu bilan birga, Bank Mijoz tomonidan Shartnoma yoki Yo'riqnomalar buzilgan taqdirda o'z huquqididan voz kechgan bo'lsa, bu keyingi yoki davom etayotgan qoidabuziliklar bo'yicha o'z huquqididan voz kechganligini anglatmaydi.

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. Bankdan yozma shaklda amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha ko'chirma so'rash.

4.2.2. Bankdan yozma ravishda so'rab, xodimlarga Bank Uskunasidan foydalanish qoidalari bo'yicha qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari tashkil etish.

4.2.3. agar inkassatsiya yoki amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi Mijozning talabgacha hisobida aks etgan summa bilan mos kelmasa, ushbu Tranzaksiyalar amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kalendar kuni ichida Bankka yozma murojaat yuborish va o'tkazilgan tranzaksiyalar bo'yicha sliplarni (Cheklarni) taqdim etish.

4.2.4. agar Mijoz aybisiz Bank Uskunasi yaroqsiz holatga kelgan bo'lsa, Shartnomani muddatidan avval bekor qilishni talab qilish.

4.3. Mijoz quyidagilarga haqli emas:

4.3.1. to'lovni qaytarish chog'ida naqd pul berish. To'lovni qaytarishda Mijoz pul mablag'larini Karta Egasining kartasidagi hisob raqamiga o'tkazishni amalga oshiradi;

4.3.2. Stop-varaqda bo'lgan Kartalar orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovlarini qabul qilish;

4.3.3. Bank Uskunasi, sarflanadigan materiallar va Tranzaksiyalar hamda ularni amalga oshirish usullari haqidagi ma'lumotlarni, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq nazorat funksiyalariga ega shaxslardan tashqari, uchinchi shaxslarga berish;

4.3.4. Ilgari allaqachon ishlov berishga yuborilgan Tranzaksiyalar bo'yicha ularni istalgan shaklda qayta yuborish.

4.4. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

V. XIZMATLAR UCHUN TO'LOV MIQDORI VA TARTIBI

5.1. Agar Bankda milliy valyutada ochilgan talabgacha asosiy yoki ikkilamchi hisobvaraqlari mavjud bo'lsa, Terminal xizmatlari bo'yicha Bank tomonidan Mijozdan komissiya undirilishi Bankning amaldagi tariflariga

muvofiq, har oyning 1-sanasida, akseptsiz tartibda, memorial order asosida amalga oshiriladi. Uskunani topshirish-qabul qilish dalolatnomasi sanasidan qat'i nazar, Mijozdan kalendar oy uchun komissiya to'liq hajmda undiriladi.

5.2. Mijoz vaqtincha foydalanish uchun NKM va/yoki POS terminalini berish bo'yicha komissiyani to'laydi yoki Bank ushbu komissiyani Bankning amaldagi tariflariga muvofiq, Bankda ochilgan 29896xxx raqamli hisobga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan hisobdan chiqaradi. Shuningdek, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq oylik komissiya ham Bank tomonidan Mijozning asosiy / ikkilamchi hisobidan har oyning 1-kunida akseptsiz tarzda yechib olinadi.

5.3. Agar Mijoz Bankda ochilgan milliy valyutadagi asosiy / ikkilamchi talab qilib olinguncha hisob raqamini yopsa, u holda Mijoz o'ziga topshirilgan Uskunani butun, shikastlanmagan va ishlaydigan holatda, Uskunani Topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida Bankka qaytaradi yoki agar uskuna nobud bo'lsa, yo'qolsa yoki ta'mirlab bo'lmaydigan darajada buzilsa, Bank Tariflariga muvofiq jarima summasini to'laydi hamda agar fiskal modul ulangan bo'lsa, uni o'chirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.4. Mijoz hisobida terminallarga xizmat ko'rsatish bo'yicha komissiya to'lovini qoplash uchun yetarli mablag' mavjud bo'limgan yoki mablag' yetarli bo'limgan taqdirda, to'lanmagan qarzdorlik summasi Mijozning 2-kartotekaga kiritiladi va qonunchilikda belgilangan tartibda to'lov talabnomasi chiqariladi. Mazkur to'lov talabnomasi Mijoz tomonidan hech qanday qo'shimcha tasdiqlarsiz aksept qilingan hisoblanadi.

5.5. Agar oyning 1-sanasi dam olish yoki ishlanmaydigan (bayram) kunga to'g'ri kelsa, unda komissiya to'lovini ushlab qolish undan keyingi bank ish kunida amalga oshiriladi.

5.6. Agar Terminal 1-sanasidan keyin o'rnatilgan bo'lsa, Bank Uskunani qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kuni Mijozdan amaldagi Tariflarga muvofiq, terminallarga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'liq oylik komissiya to'lovini akseptsiz tartibda ushlab qoladi.

5.7. Agar Shartnoma bekor qilinsa yoki tugatilsa, Bank Shartnoma bekor qilingan yoki tugatilgan kuni Mijozdan amaldagi Tariflarga muvofiq, terminallarga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'liq oylik komission to'lovni akseptsiz tartibda ushlab qoladi, Shartnoma bekor qilingan yoki tugatilgan sanasidan qat'i nazar.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi, Shartnoma va mazkur Tartibga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Mazkur Tartib predmeti bilan bog'liq holda Tomonlardan biriga moddiy yoki moliyaviy zarar yetkazilgan taqdirda, aybdor Tomon ushbu zararni qoplash majburiyatini oladi.

6.3. Bank quyidagi holatlarda javobgar hisoblanmaydi:

6.3.1. Quyidagi holatlarda pul mablag'larini qaytarish bo'yicha:

- Shartnoma shartlariga mos kelmaydigan yoki unga zid bo'lgan Tranzaksiyalar bo'yicha;
- mazkur Tartibning 4.1.4–4.1.5-bandlarida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra;

6.3.2. YO'RPM, MBPM yoki XTT uskunalaridagi nosozliklar sababli Mijoz tomonidan Kartalar Egalariga xizmat ko'rsatishning imkon bo'limgan holatlar uchun, shu jumladan Avtorevers holati yuzaga kelgan taqdirda;

6.3.3. NKM va/yoki POS-terminal dasturiy ta'minotidagi nosozliklar uchun.

6.4. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo'ldi:

6.4.1. siplar/Cheklnari saqlash va ularni Bankka o'z vaqtida taqdim etish uchun;

6.4.2. Mijoz tomonidan Stop-varaqni o'z vaqtida yangilamasligi natijasida Stop-varaqda bo'lgan Kartani qabul qilganligi uchun;

6.4.3. Shartnoma shartlarini buzganligi natijasida Bankka yetkazilgan zarar uchun;

6.4.4. Bank Uskunasining bus-but va ishchi holati saqlanishi uchun;

6.4.5. cheklarni Yo'riqnomalarini talablari asosida to'g'ri rasmiylashtirish va Bankka taqdim etilgan har qanday axborotning to'g'riliqi uchun;

6.4.6. tranzaksiya amalga oshirilganda summaning to'g'ri o'tkazilishi uchun;

6.4.7. savdo-xizmat korxonasida plastik kartalar egalariga xizmat ko'rsatish qoidalari bayon etilgan qoidalarga qat'iy rioya qilish uchun;

6.4.8. Mijoz tomonidan ushbu Tartib, Yo‘riqnomalar va Savdo-xizmat korxonasida plastik kartalar egalariga xizmat ko‘rsatish Qoidalari talablari buzilgan holatda Mijozga yetkazilgan zarar uchun;

6.4.9. Mijoz tomonidan stop-listni o‘z vaqtida yangilamasligi natijasida stop-listda bo‘lgan kartani qabul qilganligi uchun;

6.4.10. cheklarni rasmiylashtirish qoidalari, “Savdo-xizmat korxonasida plastik kartalar egalariga xizmat ko‘rsatish qoidalari” buzilgan har bir holat bo‘yicha Mijozga nisbatan Bank foydasiga, O‘zbekiston Respublikasida ushbu huquqbazarlik sodir etilgan kundagi eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida jarima qo‘llaniladi;

6.4.11. Shartnoma, xalqaro to‘lov tizimlari qoidalari doirasidagi boshqa majburiyatlar Mijoz tomonidan bajarilmagan har bir holat bo‘yicha Mijoz Bank foydasiga ushbu huquqbazarlik sodir etilgan kundagi O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorida 1 (bir) barobar jarima to‘laydi;

6.5. Agar Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida tomonlardan biri Amaldagi qonunchilikni buzgan bo‘lsa, ikkinchi tomon ushbu qonunbazarlik uchun javobgar bo‘lmaydi.

VII. YAKUNIY SHARTLAR

7.1. Shartnoma Mijoz tomonidan Ariza topshirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 1 (bir) yil muddatda amal qiladi. Agar Shartnoma amal qilish muddati tugashidan 20 (yigirma) bank kuni oldin tomonlardan biri uni bekor qilish istagini bildirmasa, u holda Shartnoma har bir keyingi kalendar yili uchun avtomatik tarzda uzaytirilgan deb hisoblanadi.

7.2. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi yoki tugatilishi mumkin:

- Bank tomonidan bir tomonlama tartibda, Shartnoma va ushbu Tartibda nazarda tutilgan hollarda;
- Tomonlardan birining tashabbusi bilan, boshqa tomon ushbu holat haqida 10 (o‘n) bank kuni oldin yozma ravishda xabardor qilingan taqdirda. Bunda, Mijoz unga vaqtinchalik foydalanish uchun berilgan Uskunani ishlaydigan holatda, butun va shikastlanmagan holda Bankka qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida qaytarishi shart. Agar Uskuna yaroqsiz holatga kelgan, yo‘qolgan yoki shikastlangan bo‘lsa, Mijoz Bank Tariflariga muvofiq jarima to‘lashi va fiskal modul ulangan bo‘lsa, uni o‘chirish majburiyatini zimmasiga oladi;
- Shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

7.3. Mijoz Shartnoma bo‘yicha Bank oldidagi qarzdorlik mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu qarzdorlikni to‘liq qoplash majburiyatini oladi.

7.4. Shartnoma bekor qilingan yoki tugatilgan taqdirda, agar Mijoz Bankda ushbu Tartibning 5.2. yoki 5.3. bandlariga muvofiq xizmat olayotgan bo‘lsa va hisob raqamida foydalanilmagan avans to‘lovi qolgan bo‘lsa, Tomonlar o‘rtasida Qiyyoslash dalolatnomasi tuziladi, unga asosan Bank qolgan mablag‘ni Mijozning O‘zbekiston Respublikasidagi istalgan tijorat bankida ochilgan talab qilib olinguncha omonat hisob raqamiga o‘tkazadi.

7.5. Yo‘riqnomalar Bank tomonidan bir tomonlama tartibda ishlab chiqiladi va o‘zgartiriladi, bu amaldagi qoidalari va tartiblarga muvofiq amalga oshiriladi hamda Mijozga tanishish va ijro uchun yuboriladi.

7.6. Ushbu Shartnoma bilan Mijoz Bankka qaytarib olinmaydigan, so‘zsiz, bevosita va haqiqiy huquqni taqdim etadi. Bu huquq Shartnoma amal qilayotgan butun davr mobaynida hamda uni bekor qilinganidan yoki tugatilganidan keyin qo‘srimcha 6 (olti) kalendar oy davomida amal qiladi. Bank ushbu huquqqa asosan, Shartnoma shartlariga muvofiq Mijozning Bankda yoki O‘zbekiston Respublikasidagi boshqa har qanday bankda, har qanday valyutada ochilgan hisob raqamlaridan Bank foydasiga undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘larni, shuningdek, mavjud qonunchilikda, Shartnomada, milliy va xalqaro to‘lov tizimlari qoidalari ko‘rsatilgan hollarda, Karta Egalariga qaytarilishi lozim bo‘lgan mablag‘larni akseptsiz tartibda yechib olish huquqiga ega bo‘ladi.

7.7. Shartnoma bekor qilingan yoki tugatilgan taqdirda, Bank Tariflariga muvofiq to‘langan komissiya to‘lovlarini Mijozga qaytarilmaydi.

7.8. Shartnoma bilan bog'liq nizolar Tomonlar o'rtaida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Agar muzokaralar orqali nizolarni hal etishning imkoni bo'lmasa, nizolar Shartnomada ko'rsatilgan tartibda hal etiladi.

7.9. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rta sidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Shartnoma asosida tartibga solinadi.

**Milliy valyutadagi plastik kartalar egasi bo‘lgan Mijozlarga NKM
va/yoki POS-terminal orqali
xizmat ko‘rsatish tartibiga
1-ilova**

MIJOZ ANKETASI

Savdo nuqtasi nomi _____

Tashkilot nomi / STIR _____

Savdo nuqtasi manzili: _____

Mo‘ljal: _____

Rahbarning F.I.SH. _____

Rahbarning kontakt telefoni _____

Buxgalterning F.I.SH. _____

Buxgalterning kontakt telefoni _____

Kartalar orqali olingan tushum o‘tkaziladigan bank hisob raqami rekvizitlari _____

Faoliyat sohasi (Pullik xizmat / savdo korxonasi): _____

Agar Mijozning tovarlar/ishlar/xizmatlarni sotish nuqtalari bir nechta bo‘lsa va uskuna o‘rnatilgan joylar shahar/tuman bo‘ylab turli manzillarda joylashgan bo‘lsa, iltimos, savdo nuqtalari bo‘yicha kontakt ma’lumotlarini ko‘rsating:

Savdo nuqtasi nomi	Aloqa ma’lumotlari
_____	Manzil: Mo‘ljal: Telefon: Aloqa qiluvch shaxsning F.I.O:

Mijoz _____

(Imzo)
M.O‘.

Yuqoridagi ma’lumotlarning to‘g‘riligini tasdiqlayman hamda yuqorida ko‘rsatilgan xodimlarni Karta egalariga xizmat ko‘rsatish uchun mas‘ul etib tayinlayman.

Mijoz xodimlar bilan instruktaj o‘tkazildi.

“Kapitalbank” ATBdan _____

**Milliy valyutadagi plastik kartalar egasi bo‘lgan Mijozlarga NKM
va/yoki POS-terminal orqali
xizmat ko‘rsatish tartibiga
2-ilova**

USKUNANI QABUL QILISH–TOPSHIRISH DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

«_____» yil «__» «_____»

“Kapitalbank” ATB vakillari quyidagi tarkibda:

Boshqaruvchi: _____

OITTP xodimi: _____

va Mijoz vakili: _____

Mijoz: _____

ushbu Dalolatnomatini «Kapitalbank» ATB vakili tomonidan quyidagi uskunalar TOPSHIRILGANI, Mijoz vakili tomonidan esa QABUL QILIB OLINGANI haqida tuzildi:

Nº	Uskunaning nomi	Soni	Seriya raqami	Inventar raqami
1	NKM va/yoki POS-terminal _____ (model) (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga)			
	Jami			

Uskuna topshirilish vaqtida soz holatda bo‘lib, uchinchi shaxslarning unga nisbatan hech qanday da’vo va talablari mavjud emas, nizo va hatlov obyekti hisoblanmaydi.

Vakillar tomonidan aniqlangan kamchiliklarning xususiyati va kelib chiqish sabablari bo‘yicha xulosa: **kamchiliklar aniqlanmadı**. Tomonlar ushbu Dalolatnomada haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan taqdirda, uni imzolaganlik uchun javobgarlik belgilanganidan xabardor etildilar.

Bank tomonidan berildi:

Mijoz tomonidan berildi:

Boshqaruvchi

M.O‘.

Rahbar F.I.O

OITTP xodimi

(Imzo)

M.O‘.

**Milliy valyutadagi plastik kartalar egasi bo‘lgan Mijozlarga NKM
va/yoki POS-terminal orqali
xizmat ko‘rsatish tartibiga
3-ilova**

**USKUNA BUZILGANLIGI TO‘G‘RISIDA
DALOLATNOMA**

_____ sh.

20____y. «____» _____

Biz, quyida imzo chekkanlar — AKB «Kapitalbank»ning _____ filiali
Boshqaruvchisi _____ va Mijoz Rahbari _____, vakili sifatida _____,

Bank tomonidan Mijozga Kartalarni qabul qiluvchi mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun topshirilgan Bank Uskunasining
buzilganligi haqida ushbu Dalolatnomani tuzdik:

Terminal modeli: _____

Seriya raqami: _____

Tashqi holati: _____

(tashqi zarar xususiyati ko‘rsatilsin)

Nosozlik xususiyati: _____

(nosozlik nimada namoyon bo‘lishi ko‘rsatilsin)

Ishga yaroqsizlik sababi: _____

(buzilish sababi va uning natijasida Shartnomaning qaysi bandi buzilgani ko‘rsatilsin)

Dalolatnomma ikki bir xil nusxada tuzildi

TOMONLARNING IMZOLARI:

Bank vakili:

(F.I.O., lavozimi)

(imzo, sana)

Mijoz vakili:

(rahbar F.I.O.)

(imzo, sana)

M.O‘.

**Milliy valyutadagi plastik kartalar egasi bo'lgan Mijozlarga NKM
va/yoki POS-terminal orqali
xizmat ko'rsatish tartibiga
4-ilova**

YO'QOTISH TO'G'RISIDA DALOLATNOMA

_____ sh. 20____ y. «____» _____

Biz, quyida imzo chekkanlar – “Kapitalbank” ATBning _____ filiali Boshqaruvchisi

_____, Mijoz _____ Rahbari
vakili _____ si fatida
ko'rsatish uchun topshirilgan Bank Uskunasining yo'qolganligi holati bo'yicha ushbu Dalolatnomani tuzdik::

Terminal modeli: _____

Seriya raqami: _____

Yo'qitish sababi: _____

(yo'qitish sababi va uning natijasida Shartnomaning qaysi bandi buzilgani ko'rsatilsin)

Dalolatnomma ikki bir xil nusxada tuzildi

TOMONLARNING IMZOLARI:

Bank vakili:

(F.I.O., lavozimi)

(imzo, sana)

Mijoz vakili:

(rahbar F.I.O.)

(imzo, sana)

M.O'.

**Milliy valyutadagi plastik kartalar egasi bo‘lgan Mijozlarga NKM va/yoki POS-terminal orqali
xizmat ko‘rsatish tartibiga
5-ilova**

USKUNANI TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI

sh. _____

20 ____ y. « ____ » _____

Mazkur dalolatnomalar “Kapitalbank” ATB vakillari – “Kapitalbank” ATBning _____ filiali Boshqaruvchisi _____ va Ixtisoslashirilgan Tranzit To‘lov Portalni Operatorining xodimi _____ tomonidan qabul qilingan va _____ tomonidan quyidagi uskuna topshirilganligi haqida tuzildi:

Nº	Uskunaning nomi	Soni	Seriya (inventor) raqami
1	NKM va/yoki POS-terminal _____ (model) (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga)		
	Jami		

Uskuna topshirilish vaqtida _____ holatda bo‘lgan.

Vakillar tomonidan aniqlangan kamchiliklarning xususiyati va kelib chiqish sabablari bo‘yicha xulosa:

Tomonlar ushbu dalolatnomada haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan taqdirda, uni imzolash uchun javobgarlik borligi haqida ogohlantirildi.

Bank tomonidan berildi:

Mijoz tomonidan berildi:

Boshqaruvchi
M.O’.

Rahbar F.I.O

OITTP xodimi

(Imzo)

M.O’.

Uskunani topshirish-qabul qilish dalolatnomasi

20 ____ y. « ____ » _____

sh.

Mazkur dalolatnomalar “Kapitalbank” ATB filiali rahbari _____ va “Kapitalbank” ATB STPPO hodimi _____ tomonidan quyidagi uskunalar QABUL QILIB OLINGANI, hamda _____ tomonidan TOPSHIRILGNI haqida tuzildi:

Nº	Uskunaning nomi	Soni	Seriya (inventor) raqami
1	NKM va/yoki POS-terminal _____ (model) (quvvat adapteri va quvvat kabeli bilan birga)		
	Jami		

Uskuna topshirilish vaqtida _____ holatda bo‘lgan.

Vakillar tomonidan aniqlangan kamchiliklarning xususiyati va kelib chiqish sabablari bo‘yicha xulosa:

Tomonlar ushbu dalolatnomada haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan taqdirda, uni imzolash uchun javobgarlik borligi haqida ogohlantirildi.

Bank tomonidan berildi:

Mijoz tomonidan berildi:

Boshqaruvchi
M.O’.

Rahbar F.I.O

OITTP xodimi

(Imzo)

M.O’.

**ATB “Kapitalbank”da yuridik shaxslar va vakka
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari
ko‘rsatish bo‘yicha Universal shartnomaga**

9-ILOVA

So’mdagi UZCARD korporativ kartasiga xizmat ko‘rsatish shartnomasi

1. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA’RIFLAR:

1.1. Ushbu Shartnomada quyidagi atama va ta’riflardan foydalilanadi:

Karta – Karta saqlovchisiga Karta hisobraqami bo‘yicha bir necha marotaba transaksiyalarni o‘tkazish imkonini beradigan, Bank tomonidan chiqarilgan UZCARD korporativ plastik kartasi. Kartaning joriy holati haqidagi ma’lumot YAUPMda aks etadi;

Kartaning saqlovchisi – Mijoz—yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan vakolat berilgan shaxs bo‘lib, Karta uning nomiga chiqariladi hamda Shartnoma asosida mazkur shaxs undan foydalananadi.

Karta hisobraqami – Karta bilan undagi pul mablag’larini boshqarish mumkin bo’lgan Mijozning bank hisobraqami;

Shartnoma – so’mdagi UZCARD korporativ plastik kartalariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ushbu Shartnoma. Ushbu Shartnoma Bank veb-saytida joylashtirilgan;

YAUPM – UZCARD bank kartalarining dastlabki emissiyasini, transaksiyalarning avtorizatsiyasi, qayta ishlanishi va kliringini, “UZCARD” BTT doirasida banklar o‘rtasida o‘zaro axborot almashuvini va ularga bank kartalari bo‘yicha amalga oshirilgan banklararo transaksiyalarni tasdiqlash uchun ushbu transaksiyalar haqida ma’lumotning yuborilishini ta’minlovchi Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi;

«UZCARD» BTT (Banklararo to‘lov tizimi) – huquqiy normalarning, me’yoriy hujjatlarning, dasturiy-texnik qarorlarning va naqd pulsiz hisob-kitoblarni elektron shaklda amalga oshirishga mo‘ljallangan hamda kartalarni emissiya qiluvchi banklar, tovar/ishlar/xizmatlarni sotuvchilariga xizmat ko‘rsatuvchi banklar, hisob-kitob qiluvchi banklar va YAUPMni birlashtiruvchi tegishli tashkiliy-texnik infratuzilmaning yig‘indisiga asoslangan hududiy taqsimlangan to‘lov tizimi;

Avtorizatsiya – UZCARD BTT texnologiyasiga asosan telefon, elektron shaklda va boshqa aloqa vositasi orqali kartadan foydalanib operatsiya amalga oshirishga karta emitentining ruxsatini olish jarayoni;

Hisob-kitob qiluvchi bank – hisob-kitob funksiyasini bajaruvchi, “UZCARD” BTT doirasida o‘zaro hisob-kitoblarni o‘tkazilishini ta’minlaydigan bank;

Emitent – bank kartalari emissiyasini amalga oshiruvchi, o‘zi emissiya qilgan bank kartalariga mulk huquqiga ega bo‘lgan va ularning saqlovchilari va evkayer banklar oldida ular tomonidan bank kartalaridan foydalilanigan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo‘yicha o‘z nomidan majburiyatlarni zimmasiga olgan bank;

Evkayer – SXK bilan tranzaksiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank;

SXK (savdo-xizmat ko‘rsatish korxonasi) - Ekvayer bilan tuzilgan shartnomaga asosan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni Karta orqali realizatsiya qiluvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt (yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs);

POS terminal – SXK tovarlari/ishlari/xizmatlari uchun karta orqali to‘lovlarni qabul qilishga va amalga oshirilgan transaksiyalar bo‘yicha real vaqt rejimida YAUPMdan cheklarni shakllantirishga mo‘ljallangan elektron qurilma;

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminali – xizmatlarga to‘lov qilish uchun naqd pul mablag’larini qabul qilish (infokiosk) funksiyasi va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish rejimida naqd pul

mablag‘larini olish (bankomat) opsional funksiyasi bilan jihozlangan, xizmatlar uchun Karta orqali to‘lovlarni qabul qiluvchi elektron qurilma;

E-POS terminal – SXK tovarlari (ishlar,xizmatlar) uchun karta orqali to‘lovlarni qabul qilishga va amalga oshirilgan transaksiyalar bo‘yicha real vaqt rejimida YAUPMdan elektron cheklarni shakllantirishga mo‘ljallangan virtual terminal

Slip (Elektron chek) – transaksiyaning karta orqali amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hamda transaksiya summasi, transaksiya turi, transaksiya amalga oshgan sana haqidagi ma’lumotni, shuningdek, kartani va ushbu Slipni (elektron chekni) shakllantirgan terminalni identifikatsiya qilishga imkon beradigan ma’lumotni o‘z ichiga olgan POS-terminalning, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminalining, E-POS terminalning kvitansiyasi;

Tranzaksiya – tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lash uchun karta orqali amalga oshiriladigan to‘lov. Transaksiya karta Saqlovchisi tomonidan PIN-kod, dinamik parol, bank kartasi raqami va internet to‘lovlari xavfsizligining boshqa belgilari (operatsiyalar internet yoki USSD orqali amalga oshirilganda) yordamida tasdiqlanadi;

Mijozning vakolatli vakili – Mijozning rahbari, bosh buxgalteri yoki Karta saqlovchisi;

Reversal – kommunikatsion xatoliklar (aloqadagi uzilishlar) sodir bo‘lganda Kartochka bo‘yicha POS terminaldagi/o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish Terminalidagi transaksiyani bekor qilish. Haqiqiy transaksiya amalga oshirilganda slipda ushbu transaksiya xato o‘tkazilganligi haqida ma’lumot ko‘rsatiladi;

To‘lovni qaytarish – Karta Saqovchisining Karta orqali sotib olgan tovarlar(ishlar,xizmatlar)dan voz kechishi oqibatida SXK tomonidan tasdiqlangan va SXK tomonidan Bank belgilagan shaklda karta Saqlovchisining hisobvarag‘iga kirim qilish uchun pul mablag‘larini qaytarish. To‘lovni qaytarish naqd pul shaklda amalga oshirilishi mumkin emas

Stop list – kartani yo‘qotilishi (o‘g‘irlanishi va boshq.) natijasida karta Saqlovchisi tomonidan Bankka rasmiy murojaat qilingandan so‘ng Bank tomonidan Transaksiyalar amalga oshirilishi ta’qiqlangan Kartalar ro‘yxati. Mijoz Kartani Stop list ro‘yxatiga qo‘yish uchun Bank belgilagan qoidalarga asosan ariza beradi;

Bank Yo‘riqnomalari – Kartadan va boshqa qurilmadan foydalanish jarayonlari hamda qoidalari tushuntiruvchi hujjatlar, ularga asosan Bank Mijozga Karta bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi. Bank Yo‘riqnomalariga rioya qilish Tomonlar uchun majburiy hisoblanadi. Bank Yo‘riqnomalari Bankning Saytida joylashtirilgan;

PIN-kod – Karta hisobraqamida hisobda turgan pul mablag‘larini tasarruf qilish huquqini tasdiqlovchi, shuningdek, Kartada saqlanadigan ma’lumotlarga uchinchi shaxslarning kirishini chekllovchi Kartaning shaxsiy indentifikatsion raqami. Pin-kod maxfiy ma’lumot hisoblanadi va sir saqlanishi lozim. PIN-kodni saqlash bo‘yicha javobgarlik karta Saqlovchisi zimmasida bo‘ladi.

1.2. Ushbu Shartnomada foydalilanigan boshqa atamalar va ta’riflar Universal shartnomadagi kabi ma’noga ega.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Shartnoma, Universal shartnoma, Bank tariflari va Mijoz tomonidan to‘ldirilgan ariza birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida UZCARD korporativ plastik kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan Shartnomani (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb yuritiladi) tashkil etadi.

2.2. Kartani olish uchun Mijozning Bankda talab qilib olinguncha depozit hisobraqami bo‘lishi kerak.

2.3. Bankka murojaat qilingan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida Bank Mijoz uchun Karta hisobraqamini ochadi, Kartani tayyorlaydi va mijozning vakolatli vakiliga topshiradi.

2.4. Mijoz va Karta egasi o'rtasidagi munosabatlar Mijoz tomonidan o'matilgan ichki tartib va Mijozning qoidalari bilan tartibga solinadi.

2.5. Karta unda ko'rsatilgan tegishli yil oyining oxirigacha amal qiladi. Kartaning amal qilish muddati tugashi bilan, shuningdek almashtirilganda yoki Bank talabiga binoan bankka qaytarilishi kerak. Mijoz Kartadan O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi qonunchilikka muvofiq tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun foydalanadi.

2.6. Karta mijozning elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan yozma yoki elektron arizasi asosida yopiladi.

2.7. Bank yo'qolgan (o'g'irlangan va hokazo) kartani mijoz tomonidan kartani yo'qotish (o'g'irlatish va h.k.) to'g'risida ariza bergan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida almashtiradi.

2.8. Shartnomalar bo'yicha barcha to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so'mda) amalga oshiriladi.

2.9. Mijoz tomonidan taqdim etilgan ariza mijozning Bankning Kartadan foydalanish bo'yicha yo'riqnomasi bilan tanishganligini va to'liq roziligin tasdiqlaydi.

3. XIZMATLAR UCHUN TO'LOV MIQDORI VA UNI TO'LASH TARTIBI

3.1. Bank ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan amaldagi Tariflarga muvofiq Karta hisobraqamiga pul mablag'larini kiritishda Mijozdan komissiya yig'imlarini undiradi.

3.2. Mijozning karta hisobraqamidagi mablag'lar qoldig'iga foizlar hisoblanmaydi.

4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Bankning majburiyatları:

4.1.1. Karta hisobraqamidagi mablag'lar qoldig'ini kamaytiradigan, Kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar summalarini mijozning Karta hisobraqamidan debet qilish;

4.1.2. Mijozning asosiy hisobraqamidan bank o'tkazmasi yo'li bilan olingan pul mablag'larini mijozning karta hisobraqamiga o'tkazish;

4.1.3. mijozning arizasiga asosan amaldagi Tariflarga muvofiq Karta hisobraqamidan ko'chirma taqdim etish;

4.1.4. Karta bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish va Mijoz tomonidan Kartaning yo'qolganligi (o'g'irlanishi va h.k.) to'g'risidagi ariza taqdim etilgandan so'ng uni bloklash, uni tugatish va Stop listga joylashtirish;

4.1.5. Karta egasiga/mijozga Bank yo'riqnomasi va tariflarida nazarda tutilgan Kartadan foydalanish va to'lov texnologiyasi bo'yicha maslahatlar berish;

4.1.6. Yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, ko'rsatilgan o'zgartirishlar ommaviy axborot vositalarida kiritilishidan kamida 5 (besh) bank ish kuni oldin, shuningdek, Bank ixtiyoriga ko'ra tanlangan boshqa usulda Mijozni xabardor qilish;

Shartnomani bekor qilgandan so'ng, avval Karta yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so'ng, Karta hisobraqamidagi mablag' qoldig'ini Mijozning asosiy hisobraqamiga qaytarish.

4.2. Mijoz quyidagilarga majbur:

4.2.1. Karta egasi tomonidan Shartnomalar shartlari va Bankning Kartadan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarini mustaqil ravishda bajarishi va bajarilishini ta'minlashi;

4.2.2. Karta egasini Shartnomalar shartlari va Bank ko'rsatmalari bilan tanishtirish;

4.2.3. Karta hisobraqamidagi mablag'lar qoldig'i doirasida va Kartaning amal qilish muddati davomida kartadan foydalanish;

4.2.4. PIN-kodni, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, mijozning moliyaviy va tijorat sirini tashkil etuvchi boshqa ma'lumotlar bilan bir xil darajada sir saqlashi;

- 4.2.5. amaldagi Tariflarga muvofiq komissiya to'lash;
- 4.2.6. Mijoz va Karta egasi tomonidan Shartnomani buzganliklari bilan bog'liq xarajatlarni to'lash hamda Shartnoma shartlari va Bank ko'rsatmalariga rioya qilmaslik oqibatida yetkazilgan zarar va/yoki zararni Bankka qoplash;
- 4.2.7. Bank veb-saytida ko'rsatilgan raqamga qo'ng'iroq qilib, kartaning yo'qolishi (o'g'irlanishi va h.k.) haqida darhol Bankni xabardor qilish. Og'zaki xabardor qilingandan so'ng, bir ish kuni ichida Bankka kartaning yo'qolishi (o'g'irlanishi va h.k.) to'g'risidagi arizani taqdim etish;
- 4.2.8. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, kartani bankka ish holatida qaytarish va Karta hisobini yopish. Kartani yo'qotib qo'yganligi (o'g'irlanishi va h.k.) tufayli qaytarib berishning iloji bo'lmasa, Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq komissiya to'lovni to'lash;
- 4.2.9. rekvizitlardagi o'zgarishlar to'g'risida bankni bunday o'zgarishlar kiritilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida xabardor qilish;
- 4.2.10. Bank yopilgan va uning faoliyati tugatilgan taqdirda, shuningdek Bankning birinchi talabiga binoan Kartani qaytarish.
- 4.2.11. muntazam ravishda (haftada kamida bir marta), mustaqil ravishda yoki vakolatli shaxslar orqali Shartnoma va/yoki Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish uchun Saytga tashrif buyurish.
- 4.3. Tomonlar maxfiylikni saqlashi va boshqa Tomonning yozma rozilgisiz axborotni tarqatmasliklari shart, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
- 4.4. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. TOMONLARNING HUQUQLARI

5.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 5.1.1. Yo'riqnomani bir tomonlama o'zgartirish;
- 5.1.2. zarur hollarda, Kartani taqdim etishni talab qilish, shuningdek, mijozdan kartani olib qo'yish kutilayotgan sanadan kamida 3 (uch) kun oldin Mijozni xabardor qilgan holda, Kartani Mijozdan olib qo'yish;
- 5.1.3. Kartani vaqtincha bloklash, agar:
- Mijozning asosiy hisobraqami 2-sonli kartotekada bo'lsa. Mijozning so'mdagi asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobraqamida pul mablag'lari ' yetarli bo'lmaganda, 2-sonli kartoteka bo'yicha qarzdorlikni to'lash uchun karta hisobraqamida mablag'larni hisobdan chiqarish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi;
 - mijoz bu haqda ko'rsatma bergen bo'lsa;
 - Mijoz yoki Karta egasi Shartnoma shartlari va Bank ko'rsatmalarini buzsa;
 - asosiy talab hisobraqami O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bloklangan bo'lsa;
 - bu haqda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq vakolatli organlar tomonidan buyruq berilgan bo'lsa;

5.1.4. Mijoz yoki Karta egasi tomonidan Shartnoma shartlari va Bank ko'rsatmalari buzilganligi bilan bog'liq bo'lgan qarz summalari va xarajatlarni mijozdan Bankka to'lashni talab qilish.

5.1.5. Mijozning rozilgisiz pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarni (kreditlash bo'yicha operatsiyalar bundan mustasno) quyidagi hollarda muzlatish va/yoki to'xtatib turish:

5.1.5.1. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq shaxslar terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etgan yoki ishtirok etishda guman qilinuvchi shaxslar ro'yxatiga (keyingi o'rinnarda "shaxslar ro'yxati" deb yuritiladi) kiritilgan bo'lsa;

5.1.5.2. uning ishtirokchilaridan biri shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxs nomidan yoki uning ko'rsatmasi bo'yicha harakat qilayotgan bo'lsa;

5.1.5.3. Tranzaksiyani amalga oshirish uchun foydalanilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk to'liq yoki qisman shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxsga tegishli bo'lsa;

5.1.5.4. Tranzaksiya ishtirokchisi--yuridik shaxs/yakka tartibdagagi tadbirkor shaxslar ro'yxatiga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli yoki uning nazorati ostida bo'lsa;

5.1.5.5. Mijoz amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish olmaguncha, Bank Karta orqali operatsiyalarni (shubhali/gumonli) aniqlasa, Shartnomani bir tomonlama vaqtincha to'xtatib turish.

5.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. asosiy hisobraqamlaridan pul mablag'larini naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan Karta hisobraqamidagi qoldiqni to'ldirish;

5.2.2. Karta vaqtincha bloklangan taqdirda, shuningdek, Bank yo'riqnomasida nazarda tutilgan boshqa harakatlar natijasida bloklanganda Kartani avtorizatsiya qilish;

5.2.3. kartani olgandan so'ng, PIN-kodni belgilash yo'li bilan Kartani mustaqil ravishda faollashtirish;

5.2.4. Karta bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar va karta hisobining holati to'g'risida ko'chirma olish;

5.2.5. PIN-kodni POS terminallari yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminallari orqali o'zgartirish;

5.2.6. Bankning Tariflarni o'zgartirish va/yoki to'ldirish to'g'risidagi taklifiga rozi bo'limgan taqdirda Shartnomani bekor qilishni talab qilish.

5.3. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

